

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

UMUMIY TARIX KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

Poziljonova Sevara

Puni urushlari tarixidan

5220200 – “Tarix” (mintaqalar va mamlakatlar bo‘yicha) ta’lim
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari:

katta o‘qituvchi D. Musaev

Andijon – 2014 yil

MUNDARIJA

Kirish.....

1.Rim davlatini tashkil topishi va davlat
tuzumi.....

2.Urushning boshlanishi sabablari,
I va II puni urushlari va jang xarakatlari..

3. III puni urushi va uning natijalari.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.....

KIRISH

**Dunyo mamlakatlarini bilish
– inson aql – zakovatining
manbai va ko‘rkidir.
Leonardo da Vinchi.**

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston istiqbolga erishgandan so‘ng jamiyat ijtimoiy siyosiy hayotining barcha jabhalarida keng o‘zgarishlar davri boshlandi. Bu jarayon intellektual sohada ham o‘z aksini topdi.

Eng asosiy ijtimoiy gumanitar fan hisoblangan tarix fani oldiga hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolarni ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Oqibatda sovet tarixshunosligi nuqtai nazaridan o‘rganilgan mavzular qaytadan ilmiy tadqiqot sifatida o‘rganila boshlandi.

Bundan tashqari tarixning “oq dog‘lari” sifatida o‘rganilmagan mavzularni tadqiq qilish imkoniyati qo‘lga kiritildi. “Dunyo xaritasida yangi mustaqil davlatlar paydo bo‘ldi, ular hozirgi til bilan aytganda sotsialistik o‘tmishga ega bo‘lgan o‘z siyosiy mustaqilligini tinch yo‘l bilan qo‘lga kiritgan davlatlardir. Bu davlatlar mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash yo‘liga qadam qo‘ydi. Ular dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida o‘z mavqeini mustahkamlashga intilmokda”¹.

Hozir O‘zbekiston deb ataluvchi hudud ya‘ni bizning Vatanimiz nafaqat SHarq balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan saykal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari shu kungacha ko‘rku fayzini mahobatini yo‘qotmagan asori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik hunarmandchilik madaniyati, me‘morchilik va shaharsozlik san‘ati yuksak bo‘lganligidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan eng qadimgi toshyozuvlar bitiqlardan tortib bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo‘lyozma, ularda mujassamlashgan. Tarix, adabiyot, san‘at, siyosat, ahloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me‘morchilik, dehqonchilikka oid o‘n minglab asarlar bizning beqiyos ma‘naviy boyligimiz iftihorimizdir².

Ma‘naviyat, ma‘rifatni targ‘ib qilish har bir ziyolining vijdon ishidir. Ma‘rifatchi fidoyi bo‘lmog‘i kerak. Tarixni yaxshi bilmasdan turib yuksak ma‘naviyatga erishish mumkinmi? Albatta, mumkin emas. Ma‘naviyatni tiklashi tug‘ilib o‘sgan yurtida o‘zini boshqalardan kam sezmay boshini baland ko‘tarib yurishi uchun insonga albatta tarixiy xotira kerak. Kim bo‘lishidan qat‘iy nazar jamiyatning har bir a‘zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa bunday odamlarni

¹ Каримов. И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида, хавфсизликка таҳдид барқарорлик шартлари ва тараққиёти кафолатлари. , Тошкент. 1997. 137-б.

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент.: 1998 й. 4-бет

yo‘ldan urish har xil aqidalar ta‘siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o‘rgatadi irodasini mustahkamlaydi.

Biron bir jamiyat ma‘naviy imkoniyatlarini odamlar ongida ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, mustaxkamlamay turib o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Xalqning madaniy qadriyatlari ma‘naviy merosi ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma‘naviyat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay O‘zbekiston xalqi avloddan avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an‘analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan goyat ulkan bebaxo ma‘naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi. Biz ma‘naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o‘lishidan xalqning ma‘naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayon deb hisoblaymiz¹.

SHuni ta‘kidlash kerakki, ma‘naviy qadriyatlarni hamda biz uchun muqaddas bo‘lgan diniy qadriyatlar va an‘analarni qaytarish va tiklash, o‘zligimizni anglash ancha murakkab sharoitlarda, eski imperiya tuzumi barbod bo‘lgan va ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan bir sharoitda yuz berdi. Voqealarning bunday rivojlanishi havfli ekanini anglash chuqur o‘ylab va har tomonini hisobga olgan holda yondashishni ma‘naviy tinglanishning ijobiy bunyodkorlik mohiyatini kuchaytirishga qaratilgan bir-birini to‘ldiradigan siyosiy iqtisodiy va madaniy dasturlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirishni zarur qilib qo‘ymoqda. Ushbu dasturlar birinchi navbatda qayta tiklanayotgan merosga farqlab yondashishga eng muhim umuminsoniy qadriyatlarni boyitadigan holda jamiyatimizni demokratiyalash va yangilash talablariga javob beradigan, ahloq jihatidan ahamiyatli an‘analarni, urf odatlarni tanlab olish zaruriyatiga asoslangan edi².

Tarix hotirasi xalqning jonajon o‘lkaning davlatimiz hududining xolis va xaqqoniy tarixini tiklash milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida hoyat muhim o‘rin tutadi. Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bomoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy hotiramizni jonlantirib yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Ahloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda. Ko‘plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shdilar, xalqimizning milliy iftixori bo‘lib qoldilar. Ularning nomlari jahon jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan buyuk hissalar hozirgi kunda butun dunyoga ma‘lum.

¹Каримов. И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида, хавфсизликка тахдид барқарорлик шартлари ва тараққиёти кафолатлари. , Тошкент. 1997. 137-б.

² Каримов. И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида, хавфсизликка тахдид барқарорлик шартлари ва тараққиёти кафолатлари. , Тошкент. 1997. 139-б.

Tarixiy tajriba an'analarning meros bo'lib o'tishi bularning barchasi yangidan yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolmog'i lozim.

Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr bardoshi manaviy Uyg'onishning yana bir bitmas tuganmas manbaidir.

Ijtimoiy hayotimizni isloh qilish va yangilash boshlanib ketganligi bois ma'naviy madaniyatning qudratli qatlamlari ochildi. Ular xalq ruhiyatini vatanparvarlik milliy iftihor, butun dunyo uchun bag'rikenglik tomon keskin o'zgartirib yubordi.

Mamlakatimizning mustaqilligiga jahondagi davlatlar ham befarq munosabatda bo'lmay, uni davlat sifatida tan ola boshladi. Mustaqil rivojlanishdagi o'tgan qisqa tarixiy davrda respublikani suveren davlat sifatida qaror toptirish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Hozirda O'zbekistonni 165 dan ortiq davlat tan olgan. Dunyodagi 120 dan ortiq mamlakat bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan. Toshkentda 35 dan ortiq mamlakat o'z elchixonasini ochgan¹.

Bugungi kunda O'zbekiston to'la huquqli asosda eng obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlar tarkibiga kirgan bo'lib, barcha qit'alardagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirib bormoqda.

Jahon hamjamiyatining mustaqil O'zbekistonni tan olishi davlatimizning keng tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyati o'zbek xalqining ma'nviy qadriyatlari va imkoniyatlari tiklanishga o'zini boshqa xalqlar oilasidagi to'la huquqli millat sifatida anglab etishiga yanada kuch baxsh etdi. Keng miqyosdagi xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish umuminsoniy qadriyatlardan baxramand bo'lish uchun qulay zamin yaratdi. Ayni maxalda o'zbek xalqining turli faoliyat sohalaridagi iste'dodi rivojlanishga, uning tadbirkorlik va kirishimlik bir necha chet tillarni tez o'rganib olish kabi noyob fazilatlari to'la to'kis ro'yobga chiqishga imkon berdi. Anashu aloqalar tufayli milliy mehmonavozlik va sahovat an'analari yanada rivojlandi².

Mustaqillik mamlakatimiz aholisining bilim doirasini kengaytirdi. Tarix va hozirgi zamon voqealiklariga murojaat qilish bizning ijtimoiy tafakkurimizdan hayotni idrok etishning mavhum va aqidaparastlik qoliplarini engib o'tishni, mustaqil fikr yuritish va ro'y berayotgan hodisalarni baholay olish qobiliyatini talab etdi.

¹ Каримов. И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида, хавфсизликка таҳдид барқарорлик шартлари ва тараққиёти кафолатлари. , Тошкент. 1997. 296-б.

² Каримов. И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида, хавфсизликка таҳдид барқарорлик шартлари ва тараққиёти кафолатлари. , Тошкент. 1997. 149-б.

Ma'naviy tiklanish fikrlash tarzini mustaqillik ruhi belgilaydigan yangi avlodga mansub ijodiy ziyolilarning paydo bo'lishi demakdir. Bizning tushunishimizcha qotib qolgan eski aqidalardan voz kechish o'z tarixiy o'tmishimizdan voz kechish demakdir.

Xalqimizning kelajagi eng avvalo uning o'ziga ma'naviy qudratida va milliy ongning ijodiy kuchiga bog'liqdir. Moddiy farovonlikka tabiiy intilish millatning ma'naviy va aqliy o'sish ehtiyojiga g'ov bo'lmasligi lozim. Ma'naviylik va ma'rifiylik xalqimizning ko'p asr tarixi davomida doimo uning eng kuchli xususiyati bo'lib keldi.

Bizning ma'naviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir.

Ma'lumki biz boshimizdan kechirgan sobiq mustabid tuzum davrida milliy ma'naviyatni rivojlantirishi mutlaqo yo'l qo'yilmagan. Aksincha xalqimizning tabiati yashash tarziga yot bo'lgan kommunistik mafkurani har qanday yo'llar va zo'ravonlik bilan joriy etishga harakat qilgan. SHuning uchun ham istiqlolning dastlabki kunlaridanoq bu sohadagi ahvolni tubdan o'zgartirish yurtimizda eng dolzarb va hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi¹. Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot va yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish masalasi biz uchun g'oyat dolzarb ahamiyatga ega. Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi an'ana va urf odatlarimizning saqlanishi madaniyat va san'at fan va ta'lim rivoji eng muhimi jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir. "Bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifalarni ko'z o'ngimizdan o'tkazar ekanmiz, aholining kundalik ehtiyojlariga bevosita daxldor dolzarb masalalarni hal qilish bilan bir qatorda biz eski tuzum davrida inson hayotining negizi va murakkab tomonlari, milliy qadriyatlar, tarixiy an'analar, umuminsoniy ma'naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik jamiyatimizga qanchadan-qancha zarar keltirganini unutmasligimiz kerak. Bu borada asosiy ishlarimiz nimalardan iborat bo'lishi lozim?"²

Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur.

Ayni paytda yurtimizda milliy tiklanish jarayo ni qariyb bir yarim asr davom etgan ijtimoiy-siyosiy qaramlikdan keyin dastlabki paytlarda mutlaqo tabiiy ravishda o'ziga xos «inkorni inkor» qonuniyati asosida kechganini aytish lozim. Lekin biz sobiq tuzumning mafkuraviy qarashlarini umuman inkor etishning o'zi hech qanday bunyodkorlik dasturiga ega

¹ Каримов. И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. , Т. , 2008. 5-б.

² Каримов. И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. , Т. , 2008. 78-б.

bo'lmagan siyosiy va madaniy ekstremizm xavfini tug'dirishi ehtimolini yaxshi anglar edik. SHu bilan birga, tarixiy qadriyatlar, urf-odat va an'analar, turmush tarziga orqa-oldini o'ylamasdan, yoppasiga betartib qaytish boshqa bir keskinlik, deylik, bugungi davr hayotini qabul qilmaslik, jamiyatni yangilash zaruratini inkor etish kabi nomaqbul holatlarga olib kelishi mumkinligini ham unutmaslik zarur edi¹.

Barchamizga ma'lumki, millat va xalqning ruxi, dunyoqarashi va turmush tarzini ifoda etadigan milliy ma'naviyatga munosabat, uni zamon talablari asosida rivojlantirish, odamlar ning dunyoqarashi va tafakkurini o'zgartirish masalasi har tomonlama chuqur va puxta o'ylab ish yuritishni talab qiladi.

Biz xalqimizning aql-idroki, mustahkam irodasi, bag'rikengligi va insonparvarligiga tayangan holda, bu borada amalga oshirgan bir qator ishlar bugungi kunda o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

Barchamizga ma'lumki, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi. Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi.

Tarix haqiqati shuni ko'rsatadiki, tomirida milliy g'urur, Vatan ishqini jo'sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Biz shunday ma'naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko'zimizni, qalbimizni yashnatib tursin.

Farzandlarimizga ana shu haqiqatlarni, ya'ni dunyoviy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi nozik munosabatlarning mohiyatini har tomonlama to'g'ri tushuntirib berishimiz lozim. Tarix va hayot tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoviy va diniy qadriyatlar bir-birini to'ldirmas ekan, bugungi kunning og'ir va murakkab savollariga to'laqonli javob topish oson bo'lmaydi.

Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o'z maqsad-muddolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuklari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi aloxida ahamiyat kasb etadi. YA'ni, tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi².

SHu maqsadda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarning amaliy natijasi o'laroq, adabiyot va san'at, madaniyat, matbuot sohasi mafkuraviy tayziqdan butunlay xalos bo'lganini qayd etish joiz. Har qanday ijod namunasi, badiiy asar sinfiy bo'lishi va qandaydir g'oyaga, kommunistik mafkura

¹ Каримов. И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. , Т. , 2008. 81-б.

² Каримов. И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. , Т. , 2008. 97-б

manfaatlariga xizmat qilishi kerak, degan qarashlar bugun o'tmishga aylandi. Erkin ijod uchun, milliy qadriyatlarimiz va boy ma'naviyatimizni, xalqimiz tarixini, uning bugungi sermazmun hayotini to'laqonli va haqqoniy aks ettirish uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Bugungi kunda o'z hayotini ana shunday mas'uliyatli sohaga bag'ishlagan ko'plab iste'dod sohiblari yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, komil insonni tarbiyalash yo'lida munosib hissa qo'shib kelmokda.

Buyuk sivilizatsiya va madaniyat beshigi bo'lgan ko'xna va hayratomuz tarixni o'zida mujassam etgan Vatanimizdagi bebaho yodgorliklar osori atiqalar haqida so'z yuritir ekanmiz shu zamin yashayotgan barcha insonlar ularni avvalo xalqimiz dahosining yorqin namunasi ta'bir joiz bo'lsa uning yuksak ma'naviyatiga qo'yilgan muazzam haykallar deb qabul qilinadi.

Er yuzidagi barcha o'lmas obidalar, insoniyat hayotini tubdan o'zgartirib yuborgan jamiki ulug' kashfiyot va ixtirolar, mumtoz san'at va adabiyot durdonalari, mardlik va qahramonlik namunalari odamzotning akl tafakkuri, salohiyati va ma'naviy jasorati mahsulidir. SHuning uchun ham bu yorug' olamda eng buyuk jasorat nima, degan savolga, hech ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat — bu ma'naviy jasorat, deb javob bersak, o'ylaymanki, yanglishmagan bo'lamiz¹.

Jahon tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qalbida, yuragida ana shunday jasorat hissi nihoyatda kuchli bo'lgan insonlar har qanday murakkab vaziyatda ham adolat va haqiqat yo'lida o'zini ayamay, el-yurt uchun, Vatan uchun qanday ibratli ishlarni amalga oshirganini ko'rish mumkin. Aynan ana shunday odamlarning ma'naviy fazilatlarini tufayli ezgu his-tuyg'ular, muqaddas va ulug' tushunchalar dunyoda hanuz barqaror bo'lib kelmoqda. Bunday benazir zotlarning barcha xalqlar va millatlar orasida ko'plab topilishi — ma'naviy jasorat tuyg'usi butun bashariyatga xos xususiyat ekanidan dalolat beradi. Masalan, necha asrlardan buyon yuksak tafakkur va akl-zakovat timsoli bo'lib kelayotgan antik davrga mansub yunon faylasufi Platonning hayot yo'lini o'zimizga bir tasavvur qilib ko'raylik. Ma'lumki, Platon butun umrini ilmu ma'rifatga bag'ishlagan ulug' donishmand — Sokratning munosib shogirdi edi.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Sokratning o'limidan keyin yunon falsafasining taqdiri xavf ostida qoladi. Faqatgina Platonning fidoiyligi va beqiyos xizmatlari evaziga bu fan yangi bosqichga ko'tariladi. Uning qanchadan-qancha qiyinchilik, sarson-sargardonlikdan so'ng bor mol-mulkini sarflab, Afina shahri yaqinidan maxsus er sotib olib, olimlar to'planib, bahs-munozara olib boradigan joy — akademiya tashkil etishi chinakam ma'naviy jasorat namunasi edi. Platon asos solgan bu ilmiy maskan ming yillar davomida nafaqat yunon, balki butun SHarq - G'arb olamining rivojiga kuchli ta'sir o'tkazadi, insoniyat tafakkur taraqqiyotining istiqbolini belgilab beradi. SHu bois ham Platon SHarq

¹ Каримов. И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. , Т. , 2008. 159-6

ilm-fanida “ustodi avval”, ya’ni birinchi muallim degan sharaflı nom bilan shuhrat qozonadi¹.

Ulkan ma’naviy jasorat sohiblari bo’lgan bunday alloma zotlar dunyoning qayerida yashamasin, ezigulik va ma’rifat yo’lida doimo odamlarga ibrat bo’lib kelgan. Qadimiy tariximizni har tomonlama o’rganib, shunday xulosaga kelish mumkinki, eng qaltis va taxlikali davrlarda millatimizga umid va ishonch bergan, uni yovlarga qarshi kurashga undagan, ajdodlarimizni ilmiy kashfiyotlar, harbiy zafarlarga, ma’rifat mash’alini baland ko’tarib jaholatga qarshi chiqishga chorlagan beqiyos kuch ham aynan ma’naviy jasorat tuyg’usidir.

Tabiat va tarix qonunlarini, uning taraqqiyot jarayonlarini chuqur tushunadigan odamgina o’z hayotini ma’naviy jasorat asosiga qurishga qodir bo’ladi².

Xalqimiz doimo ma’naviy jasorat hissi bilan yashagan va bu ulug’ tuyg’u uning hayotida yillar, asrlar o’tgani sayin tobora kuchayib, yuksalib bormoqda. Chunki xalq ma’naviyati shunday bir buyuk ummonki, har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g’ayrat va ilhom olib, o’zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi. Xalq millat o’z milliy ma’naviyatini yillar asrlar davomida yuksaltirib boyitib boradi. Chunki ma’naviyat qotib qolgan aqidalar yig’indisi emas, aksincha doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo’lib taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma’naviy hayot oldiga qo’yiladigan talablar muttasil paydo bo’laveradi.

Mamlakatimiz taraqqiyot pillapoyasidan yangi-yangi cho’qqilar sari qadam qo’yar ekan biz yashayotgan zamon suratlari shiddat bilan tezlashib oldimizda yana qancha muammo va mashaqqatlar paydo bo’lar ekan, tabiiyki ma’naviy hayotimiz ham ana shu sinovlarda toblanib yuksalib jamiyatimiz millatimizning yorug’ va sog’lom kelajagini xar qanday va to’fonlardan davr o’zgarishi bilan ularning ko’rinishi va shakli o’zgarishiga qaramasdan bezavol saqlash va asrab qolishga qodir bo’lishi darkor.

Men bo’lg’usi mutaxassis sifatida o’z bitiruv malakaviy ishim mavzusi qilib jaxon tarixida alohida o’rin egallagan antik davr tarixi bilan bog’liq Puni urushlari tarixini o’rganishga kirishdim. Chunki antik davr tarixi jahon tarixining o’chmas durdonalaridan biri hisoblanib qadimgi sivilizatsiyada alohida o’rin egallaydi. Antik davr deyilganda (lotincha qadimgi) avvalo Gretsiya, Rim tarixidagi muvaffaqiyatlar va ijtimoiy hamda siyosiy xayotda voqealar gavdalanadi..

Qadimgi Gretsiya kabi Italiyada ham tarkib topgan qudratli davlat Rim Respublikasi eramizdan avvalgi II asr o’rtalaridagi O’rta er dengiz dunyosining quldorlik mamlakatlari orasida

¹ Каримов. И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. , Т. , 2008. 160-6

² Каримов. И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. , Т. , 2008. 164-6

xukmron bo'lgan. Rim Respublikasi Appenin yarim orolida yashovchi xalqlar va qabilalarni o'z hukmiga bo'ysundirib raqobatdosh muxoliflari bilan olib borgan o'zaro janglarda g'olib bo'lib er.avv I asr va eramizning II asrida Rim quldorlari butun shimoliy Afrikani, Evropani anchagina qismini va Old Osiyo mamlakatlarini o'z xukmronligi ostiga bo'ysindirib qariyb 500 yil umr ko'rgan katta davlatga aylangan. Rim davlatida quldorlik to'la taraqqiy etgan. Rim tarixshunosligi er.avv II asrdan boshlangan bu davrda Rim davlati O'rta dengiz mamlakatlari orasida eng qudratlisiga aylangan.

Eramizning I-III asrlarida Rim O'rta er dengiz imperiyasining ijtimoiy siyosiy xayot markazi ham bo'lgan, bu shaxarning aholisi bir yarim millionga etgan. Imperiya poytaxti bilan birga g'oyat katta davlatning ayrim qismlarida boshqa katta-katta shaxarlar paydo bo'lib, ular O'rta er dengiz atrofidagi biron viloyatning boshqarish va ijtimoiy xayot markazini tashkil etgan. Italiyada tarkib topgan qudratli davlat - Rim respublikasi eramizdan avvalgi II asr o'rtalaridagi O'rta dengiz dunyosining quldorlik mamlakatlari orasida hukmron bo'lgan. Rim respublikasi Apennin yarim orolida yashovchi xalqlar va qabilalarni o'z hukmiga bo'ysundirib raqobatdosh muxoliflari bilan olib borgan qattiq urushlardan so'ng ularning qarshiligini enggan va er.av. II asr o'rtalariga kelib O'rta dengiz davlatlari orasida eng kuchlisi bo'lib qolgan. Keyinchalik er. av. I asr va eramizning II asrida Rim quldorlari SHimoliy Afrikani, Evropaning ancha qismini va Old Osiyo mamlakatlarini o'z hukmronligi ostiga olgan va qariyb 500 yil umr surgan g'oyat katta davlatga aylangan.

Rim davlatida kuldorlik to'la taraqqiy topgan. Birok zamonlar o'tishi bilan quldorlik iqtisodiyoti va qulchilik sistemasiga asoslangan davlat shakllangan.

Xullas ushbu bitiruv malakaviy ishni yozishdan asosiy maqsad, eramizdan avvalgi SH asrda Rimning O'rta dengiz g'arbida ustunlik qilish uchun Karfagenga qarshi olib borgan Puni urushlari tarixi haqida bayon qilinadi.

1. Rim davlatini tashkil topishi va davlat tuzumi.

Rim davlatini greklar Italiya deb atagan . Apennin yarim orolida vujudga kelgan va mustahkamlangan. Apennin yarim orolida qadimgi davrlardan bo‘yon odamlar istiqomat qilishgan. SHimoliy Italiya daryolari va ko‘llaridan topilgan, binolari skvayalarga o‘rnatilgan qishloqlarning qoldiqlari er. av. III – II ming yilliklarga mansub . Bu qishloqlar atrofida paydo bo‘lgan katta-katta chirindi ,axlat uyumlariga qarab ularni “terramara” deb ataydilar. (Bu italyancha so‘z bo‘lib hosildor er demakdir). Temir qurollarining joriy qilinishi muhim ahamiyat kasb etgan. Natijada ishlab chiqaruvchi kuchlarningyuksalishi tufayli ichki va tashqi mol ayriboshlash ham rivojlangan.

Er. av. II ming yillik oxirlari va 1ming yillik boshlarida Italiya aholisining (ayniqsa janubda va markazda yashovchi aholining) sharqiy O‘rta dengiz mamlakatlari bilan savdo va madaniy aloqalari doimiy bo‘lgan. Hozirgi zamon olimlarining fikricha Apennin yarim orolida Sardiniya, va Korsika orollarida, shunindek hozirgi Fransiya janubidagi rayonlarda va Pireney yarim orolining O‘rta dengiz sohillarida yashagan qadimgi aholi “O‘rta dengiz” xalqlari, ya’ni Italiyada ligurlar, Sitsiliya orolida sikanlar bilan elimlar, Korsikada korsklar, Sardiniyada sardlar bo‘lgan. Ammo Eramizdan avvalgi II ming yillik o‘rtalari va I ming yillik boshlarida O‘rta dengiz havzasi rayonlarida yashagan qadimgi qabilalar va xalqlarning ulug‘ ko‘chishi yuz bergan. SHarqdan Apennin yarimoroliga ungacha Illiriyada, dunay havzasida va hatto kichik osiyoni g‘arbiy qismida yashagan qabilalar ko‘chib kelgan. Eng qadimgi italiy qabilalari qisman Alp tog‘lari vodiysiga va shimoli – g‘arbiy sohilga siqib chiqarilgan, qisman qirib tashlangan yoki kelgindilar assimilyasiya qilgan. U zamonda iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan juda qoloq eng qadimgi italiy qabilalari tarixiy davrda Korsika oroli bilan Apennin yarimoroli qirg‘og‘ining shimoli sharqida – Liguriyadagina yashagan. Eramizdan avvalgi I ming yillikning birinchi choragi oxirlarida Apennin yarim orolining eng qadimgi aholisi har-xil qabila va xalqlardan iborat bo‘lgan.

SHimoli – sharqiy chekkada Illiriya aholisiga qarindosh venetlar qabilasi yashagan. Illiriyaliklarga qarindosh yapig va messaplar Italiyaning janubi – sharqiy chekkasini ishg‘ol

qilgan. Y Arim orolning markaziy qismi bilan Sitsiliya orolida ko'p sonli italik qabilalari hamda iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan zamonasining eng rivoj topgan halqi etrusklar yashagan. Tibrning quyi oqimida chap qirg'oq vodiysining kattagina qismini italik qabilalar orasida eng taraqqiy etgan latinlar qabilasi band qilgan va ular yashagan viloyat o'z nomlari bilan Latsiya deb atalgan.

Italik qabilalarning iqtisodiy va sotsial jihatidan o'zlaridan ko'p ustun turgan xalqlar – etrusk va greklar bilan o'zaro munosabatda bo'lganliklari natijasida bu qabilalardagi ibtidoiy jamoatchilik munosabatlarining buzilish jarayoni tezlashgan.

Qadimgi Italiya xalqlari orasida eng rivoj topgan etrusklar bo'lgan (rimliklar ularni “tusklar” deb, greklar “tirrenlar” deb o'zlarini esa ular “rasenlar” deb ataganlar). Er. av. VIII – VI asrlarda etrusklar Apennin yarim orolining anchagina qismini band kilib yashaganlar. Ularning shaharlari Padus daryosining quyi okimida delta va janubiy sohildan tortib Italiyaning g'arbiy qirg'oqlarigacha, Arnus daryosining dengizga quyadigan etagidan tortib, Tibr daryosi qirg'oqlarigacha tarqoq xolda joylashgan. Bundan tashqari ular Korsika orolining sharqiy soxillari Ilva orolini va Kompaniyaning bir qismini ham ishg'ol etgan. Ular ittifoqqa birlashgan mustaqil shaharlarda jamoa bo'lib yashaganlar. Ittifoqlar siyosiy birlashma bo'lishdan ko'ra diniy birlashma xarakterida bo'lgan¹.

Etrusklar kurilish texnikasi sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishganlar. Ular toshdan katta imoratlar barpo etishib, birinchilardan bo'lib toshdan gumbazlar va arkalar ishlashgan, shu bilan birgalikda sopol idishlarini greklar kabi bo'yamay, balki, bo'rtma shakllar bilan bezashgan. Ularning sopol buyumlari metaldan yasalganga o'xshab yaltirab qorayib turgan.

Qirgok bo'ylarida istiqomat qilgan Etrusklar kemasozlik texnikasini puxta egallashgan. Bu sohada ular finikiyaliklar va greklar bilan raqobatda bo'lishgan. Apennin yarim orolining g'arbiy qirg'oqlariga tutashgan va greklar Tirren nomi bilan atalgan dengizda hukmronlik qilishgan. Ularning kemalari Gretsiya va Afrika qirg'oqlariga qadar borishgan. Eramizdan avvalgi 6 asrda ular Karfagenliklar bilan do'stona munosabat o'rnatganlar.

Eramizdan avvalgi VII – IV asrlar Etrusk jamiyatining gullab yashnagan davri xisoblanadi.

Eramizdan avvalgi IV asr o'rtalarida Etrusk shaharlarining ittifoki inkirozga yuz tutib, Padus daryosi vodiysida mustaxkam joylashib olgan Gallar Apennin yarim orolining markaziy viloyatlariga o'z xujumlarini boshlaganlaridan keyin italiy kabilalari gallarga zarba berish uchun o'zlarining yangi siyosiy va harbiy markazi bo'lmish Rim atrofiga birlasha boshlaganlar. Ular gallarning hujumlarini bartaraf etishganlaridan so'ng qo'shni qabilalar va shaharlarning jamoalarini o'zlariga bo'ysundirib o'z ta'sirlarini Etruriyaning ko'p qismiga Kampaniyaga va

¹ SHtaerman. E. M. Trofimova. M. K. Rabovladelcheskie otnosheniya v ranney Rimskoy imperii (Italiya). Moskva. 1971 god. Str- 41.

markaziy Italiyaning boshqa joylariga yoyganlar. Bu erlar Rim-Italiya quldorlarining qudratli konfederativ ittifoqining asosini tashkil etgan. Bu ittifoq eramizdan avvalgi III asr boshlariga kelib O'rta dengiz soxilidagi quldor davlatlar ichida xarbiy jihatdan eng kuchlisi bulib qolgan.

YAngi shaxar turli qadimgi italiy qabilalari joylashgan qishloqlar bir-birlariga tutashgan joylarda bulganligidan bu shaxarning axolisini aloxida-aloxida uchta qabila birlashmasi tashkil etgan. Tarixiy an'analarga ko'ra bu qadimgi qabilalar: tatsillar, raminlar, lutserlar deb atalgan. Hozirgi zamon olimlarining fikriga ko'ra bu nomlar sabinyanlar , latinlar va etrusklarga mansubdir. Qabilalar –“tribalar” urug'lar ya'ni “kuriyalar” birlashmasidan tashkil topgan. Har bir kuriyada o'ntadan urug', tribada esa o'ntadan kuriya bo'lgan. SHunday qilib uchta tribadan har birida yuztadan urug', butun jamoaning aholisi esa uch yuzta urug'dan iborat bo'lgan. Urug' birlashmalarigakirgan fuqarolar dastlab jamoa a'zolari bo'lib hisoblanganlar. Ular aholining o'z otalarini bilgan asosiy qismini tashkil etgan. “Patritsiy”lar shulardir. Dastlab faqat ular to'la huquqli fuqarolikni tashkil etgan.

Har bir urug'ning alohida nomi bo'lgan, urug' birlashmasining har bir a'zosi o'z oti va o'zining yoki oilaning laqabi bilan birga urug' nomi bilan ham atalgan. SHuning uchun ancha keyingitarixiy davrlarda ham rimliklarning nomlari uch qismdan iborat bo'lgan. Masalan Gay YUliy Sezar, YUliylar urug'i, Sezarlardan chiqqan Gay va hakazo. Har bir urug'ning boshlig'i oqsoqollar kengashiga –senatga a'zo bo'lib kirgan. Senat sud vazifasini ham bajargan. Rim jamoasi dastlab uch yuzta urug'dan tashkil topganligidan eng qadimgi zamonlarda senat ham uch yuz senatordan iborat bo'lgan.

Senat o'ziga umrbod yo'lboshchi (“ podsho”) saylab qo'ygan. Podsho senatga raislik qilgan , butun jamoa nomidan xudolarga qurbonliklar bergan va fuqarolar lashkari – “legionga” boshchilik qilgan. Qo'shni halqlar bilan urush qilish yoki sulh tuzish , senatning qarorlarini tasdiqlash va boshqa mihim masalalar kuriyalarning vakillari majlisiga (“kuriyalar komitsiyasiga”) qo'yilgan. Vaqtlar o'tishi bilan urug'ga qarashli chek erlarga egalik qilgan, zahira ekin erlari – (“jamoat dalalari”)ni o'zaro bo'lib olgan va shahar lashkarini tashkil etgan patritsiylar, ya'ni eski fuqarolar bilan birga erkin aholining boshqa tabaqasi – “plebeylar” paydo bulgan. Plebeylar patritsiylarning urug' birlashmasiga kirmagan. Qadim zamonlarda plebeylar shahar eriga egalik qilish huquqidan mahrum bo'lgan, yosh patritsiylarga o'xshab ular jamoat dalalarida zahira erlardan ham chek ololmagan. Plebeylarning ko'pchiligi hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullangan, ba'zilar ayrim patritsiylar yoki butun urug' homiyligiga o'tib o'z homiylari (“patron”lari)dan chek er olgan. Bu qaram kishilar (“klient”- “mushtarilar”) patronga, ya'ni xo'jayinga itoat qilishi, urush vaqtida ham, tinchlikpaytlarida ham xo'jayini bilan birga uni kuzatib borishi, omma oldida uni e'zozlashi lozim bo'lgan. Plebeylar fuqarolik xuquqidan foydalanmagan, zamonlar o'tishi bilan ular Rim harbiy lashkari safiga jalb qilina boshlagan.

Qullar rim aholisining quyi tabaqasini tashkil etgan. Ularning ko'pi harbiy asirlardan bo'lib, boshqalari qo'shni qabilalardan yoki chetdan kelgan qulfurush savdogarlardan sotib olingan. Nihoyat, qullar qatorini asoratga solingan kishilar to'ldirib turgan. Qadimgi sud odatlariga ko'ra don, chorva yoki biron qurol-asbob, yoki bo'lmasa (bir muncha keyingi davrlarda) qadimgi Italiyada pul o'rmini bosgan misni qarz olgan kishi hamma narsasigayana ma'lum foiz qo'shib qarz bergan kishiga muddatida qaytarib berishi lozim bo'lgan. Aks holda qarz bergan kishi qarz olganni sud oldiga olib kelishga va qarz olgan narsalarini qaytarib berishni yoki qarz evaziga biron boshqa narsa to'lashni – bolalarini, xotinini va nihoyat qarzdorning o'zini ham qul qilib sotishni talab qilishga haqli bo'lgan. Qullarning ko'pi qarzlarini va uning foizlarini o'z vaqtida to'lashga qurbilari etmaganligi bois, uning oila a'zolari yoki ularning o'zlari qullar qatorini to'ldirib borganlar¹.

Qarz huquqining ana shunday shafqatsiz bo'lishidan plebeylar norozi bo'lgan. Rim va uning viloyati etrusklar hukmronligi ostiga tushib qolganidan keyin plebeylarning noroziligi ayniqsa kuchaygan.

Hozirgi zamon tadqiqotchilari eramizdan avvalgi VII asrda Tarkviniy shahrining etrusk xokimlari Rimni o'zlariga bo'ysundirgan deb xisoblaydilar.

Tarixiy ma'lumotlar eramizdan avvalgi VI asr o'rtalarida muxim isloxot yuz berganini ta'kidlaydi. Bu isloxotni Servi Tulli amalga oshirgan deyiladi. Titliviyning aytishicha, u isloxotga ko'ra xalk majlisida Plebeylarning ishtirok etishiga yo'l ochib bergan. Servi Tulliy eski tribalarga bo'linishini tashqi nazarda saqlab qolgan bo'lsa-da, ularni qabilalar ittifoqidan territorial bo'laklarga aylantirgan. U faqat ma'muriy okrug bo'lgan to'rtta territorial triba ta'sis qilgan. Keyinchalik eramizdan avvalgi 1 asrda bunday tribalarning soni 35 taga etgan.

Plebeylarning Rim lashkari saflariga kirishlariga go'yo yo'l qo'ygan Servi Tulli kuriyalar bo'yicha chakiriladigan qadimgi fuqarolarning majlisini saqlagan xolda xarbiylar majlisini, ya'ni – "Senturiya komitsiyalar"ini barpo etgan. Xarbiylar mulkiy belgilariga qarab 5 toifaga bo'lingan. Mulki yuz ming mis ass turadigan eng badavlat kishilar birinchi toifaga kiritilgan. Ular to'la qurollangan 18 ta otliq va 80 ta piyoda yuzlik berishi lozim bo'lgan. Mulki ozroq 75 ming mis ass bo'lgan fuqarolar ikkinchi toifaga mansub bo'lib, ular sal engilroq qurollar bilan qurollanib, uchinchi, to'rtinchi va beshirchi toifalarga kiradigan (50 000, 25000 va 12500 mis ass) fuqarolar esa ungil qurollar bilan qurollanib, xatto qo'shinda o'zlari xizmat qilishlari lozim bo'lgan.

Rim aholisi eramizdan avvalgi 510-yilda podshoga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, uni Rim tuprog'idan haydab chiqargan. SHu vaqtdan boshlab senat qarori bilan Rimda podsho hokimiyati

¹ Kovalev S. I. SHtaerman. E. M. Ocherki istorii drevnngo Rima. Moskva. 1956 god. Str- 138

tugatilgan. Patritsiylar shaharni idora qilishni o'z qo'llariga olganlar. Bu saylab qo'yiladigan boshqarma "umum ishi" (respublika) – deb atalgan.

Eramizdan avvalgi V – IV asrlarda asta- sekin aristokrat patritsiylar respublikasi konstitutsiyasining tashkil topish va rivojlanish jarayoni davom etgan. Faqat patritsiylardan saylangan barcha magistratlar (mansab egalari) senatga tobe bo'lgan. Senat oqsoqollari kengashidan sekin- asta (butun tarkibi patritsiylardan iborat bo'lgan) doimiy davlat organiga aylangan. SHunday qilib respublikada ta'sis qilingan barcha siyosiy xokimyat organlari patritsiylar qo'liga o'tib ketgan . Rim plebsi esa xuddi podsho davridabo'lgani kabi iqtisodiy va siyosiy jihatdan huquqsiz bo'lib qolavergan. Patritsiylarning quldorlik respublikasi e'lon qilinganligi bilan ijtimoiy tuzumda muhim o'zgarishlar sodir bo'lmagan . Rim ilk respublika davrida polis bo'lgan ,ya'ni erkin quldorlardan iborat fuqarolar jamoasi bo'lgan. Oila (familiya) Rim jamoasi hayotida ijtimoiy va iqtisodiy jihatidan katta ahamiyatga ega bo'lgan . davlat oilaning ichki ishlariga aralasha olmagan , oila boshlig'ining ishini har nechuk tekshira olmagan.

Rim aholisi dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Rimliklar don etishtirgan, tok, zaytun o'stirgan, polizchilik qilgan. Dehqonlar temirdan yasalgan qurollarni ishlatgan. Ular yirik qoramol, qo'y, echki va cho'chqa boqqanlar. Hunarmandchilik kollegiyalarini ta'sis qilinganligi bu sohaning rivojlanganligidan dalolat beradi. Hunarmandchilik qishloq xo'jaligidan ajralganligi natijasida savdo –sotiq taraqqiy etgan. Rimning asosiy maydoni bo'lmish forumda har hafta bozor bo'lgan. SHaharda chorva vaqullar bilan savdo qiladigan maxsus joylar yuzaga kelgan. Diniy bayram kunlarida har yili ikki marta yarmarkalar tashkil etilgan. Rimning Italiya daryolaridan kemalar yurishi uchun eng qulay Tibr daryosi sohilida joylashganligi rismliklarga latin shaharlari, etrusklar, finikiylar va greklar o'rtasidagi vositachi bo'lib savdo-sotiq qilishga imkon bergan .

Pul sistemasi vujudga kelgan. Og'irligi Rim funti qismlariga barobar keladigan mis, keyinchalik bronza bo'laklari avvallari pul ekvivalenti bo'lgan chorva mollarni siqib chiqargan. Bir qancha vaqtdan keyin har xil hayvonlarning surati va metallarning tozaligiga kafolat beradigan muayyan belgilar zarb qilingan lavhalar paydo bo'lgan. Kumush pullar esa eramizdan avvalgi III asr o'rtalaridagina zarb qilina boshlagan. Plebeylar borgan sari mashg'ul bo'lgan hunarmandchilik va savdo-sotiq ning rivojlanishi Rim plebsining tabaqalanishiga olib kelgan. Pebeylar orasidan boy savdo-hunar zodagonlari ajralib chiqqan. Ikkinchi tomondan yo'qsul plebeylar soni ko'payib borgan.

Eramizdan avvalgi V – IV asrlarda Rim plebsi butun Rim jamoasiga qarashli jamoat dalasidagi erlarni bo'lib olishga uringan. Jamoat dalasi esa mag'lub bo'lgan xalqlardan rimliklar tortib olgan erlar hisobiga o'sib borgan (mag'lub bo'lgan xalqlar barcha erining $\frac{1}{3}$ dan to $\frac{2}{3}$

qismigacha tortib olingan). Lekin jamoat erlarini faqat patritsiylargina band qilishlari mumkin bo'lgan. Ammo plebeylar jamoat erlarini band qilish huquqiga ega bo'lishlari uchun ular siyosiy huquqda patritsiylar bilan teng bo'lishga erishishlari lozim bo'lgan.

Eramizdan avvalgi V – IV asrlarda plebeylar ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan patritsiylar bilanteng huquqqa ega bo'lishi uchun uzoqqa cho'zilgan kurash olib borganlar. Patritsiylar qanday fuqarolik huquqlariga ega bo'lsalar, plebeylar ham ana shunday huquqlarni talab qilgan. Bu huquqlar: magistratura (mansablar) ga ega bo'lish, senatda o'rin egallashdan iborat bo'lgan.

Bu sohada plebeylarning eng katta muvaffaqiyatlaridan biri eramizdan avvalgi 493 yildan boshlab ular har yili o'z o'rtalaridan ikkita xalq tribuni saylaydigan bo'lgan. Senat va magistratning plebs manfaatiga zarar keltiradigan qarorlarini tribunlar to'xtatib (veto) qo'yishga haqli bo'lganlar. Dastlab 2 ta tribun saylangan, so'ngra (shahar tribalarining soniga qarab) 4 ta, keyinchalik 10ta tribun saylanadigan bo'lgan. Eramizdan avvalgi V asrning birinchi yarmi o'rtalariga kelganda plebeylar agrar masalani xalq etishga uringanlar. Eramizdan avvalgi 456 yili xalq tribuni Itsiliy Aventin tepaligidagi erlarni kambag'allarga bo'lib berish to'g'risida qonun chiqartirgan. Bundan tashqari ular amaldagi huquqlarning yozib qo'yilishiga muvaffaq bo'lishgan. Eramizdan avvalgi 451 yilda 10 patritsiydan (detsemvirlardan) iborat komissiya tuzilgan, ular yozma qonunlar majmuasini tuzishi lozim bo'lgan. Lekin ular bir ichida bu ishni qilib ulgurmagan. Natijada eramizdan avvalgi 450 yilda yana o'rta detsemvir (beshtasi patritsiy, beshtasi plebeylardan) saylangan. Ular amaldagi huquq normalarini yig'ib tartibga solganlar, xatto o'n ikkita mis lavxaga o'yib yozilgan qonunlar forumga qo'yilgan¹.

Eramizdan avvalgi 445 yili xalq tribuni Kapuleyning taklifi bilan qabul qilingan qonunda ilgari patritsiylar bilan plebeylar o'rtasida nikoxning ta'qiq qilinganligi bekor qilingan. Eramizdan avvalgi 444 yildan esa Konsul xokimiyatiga ega bo'lgan xarbiy tribun saylanadigan bulgan. Yangi magistrliklar teng kollegial xokimiyatga ega bo'lgan.

Eramizdan avvalgi 326 yilda plebeylar yana yangi qonun qabul qilinisha muvaffaq bo'lganlar. Unga ko'ra "qarz uchun qarzдорning tan-joni emas, mol-mulki javobgar bo'lishi kerak". Qarz uchun Rim fuqarosini qul qilib sotish abadiy ta'qiqlangan.

Eramizdan avvalgi 312 yilda sensor Appiy Klavdiy Ko'ning faoliyati plebeylarning savdo xunarmand doiralari uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan (sensorlar fuqarolarni senturiya va tribalarga bo'lgan, senatorlarning ro'yxatlarini tuzgan, keyinroq esa axloq tozaligini nazorat qilgan). Appiy Klavdiy savdogar va xunarmandlarning manfaatini ko'zda tutib, ersiz fuqarolarni shaxar va qishloq tribalari qatoriga kirishga ijozat bergan. Bu esa pul senzini erlenzi bilan

¹ Bokshanin A. G. Drevnyaya Gretsiya i drevniy Rim. Moskva. 1952 god. Str-78.

tenglashtirishdan iborat bo'lgan. SHaxar plebsi bilan ozod qilingan qullar o'zlarining eri bo'lish-bo'lmashligidan qat'i nazar davlatning siyosiy xayotida ishtirok etish xuquqiga ega bo'lgan.

Appiy Klavdiy plebsning savdogar va xunarmand tabaqalari yordamida Rimdan Kapuyaga qadar savdo va strategik ahamiyatga ega bo'lgan yo'l qurdirgan va o'n besh kilometrlik vodoprovod quvurlari o'rnatirgan. Rimga toza suv shu quvurlar orqali kelgan. Eramizdan avvalgi IV asr oxiriga kelganda plebeylar xar qandayin lavozimni, xatto koxinlikni xam egallashi mumkin bo'lgan. Ularning siyosiy va iqtisodiy xuquqlari uchun kurashi eramizdan avvalgi 287 yilda tugagan.

Eramizdan avvalgi III asrda plebeylar orasidan yangi toifa – suvorilar tarkib topa boshlagan. Savdo va otkup (ijaradorlik) bilan mashg'ul bo'lgan Rimdagi aristokratlar namoyandalari shu toifaga mansub bo'lgan. Suvoriylarga yuksake mulk senzi (1 mln ass yoki 400 ming sestersiy) belgilangan. Bu yangi toifaning alomati shunday bo'lganki, ular oltin uzuk va tor qizil chiziqli tunuka kiyish huquqiga ega bo'lgan. Lekin siyosiy hokimyatning butun imtiyozlari nobillar qo'lida qolavergan. Rim plebeylari tubdan o'zgargan. Endilikda qishloq va shaharlarida yashovchi aholining quyi qatlamlarini plebs deb ataydigan bo'lganlar, ular siyosiy huquqqa ega bo'lsalarda, respublika ular ichidan chiqqan mansab egalariga maosh bermaganligidan amalda u huquqlardan foydalana olmaganlar. SHunday qilib Rim jamiyatining avvalgi patritsiy va plebeylarga bo'linishi o'z ahamiyatini yo'qotgan .

Eramizdan avvalgi V – III asrlarda Rimdavlat tuzumining shakllanish jarayoni davom etgan .

Xalq majlisi (komitsiyalar), magistraturalar va senat davlat xokimiyati organlari bo'lgan. Ota-onasi fuqarolik huquqiga ega bo'lgan to'la huquqli Rim fuqarolarining jamoasi bo'lmish Rim xalqi (rorilis Romanus) oliy xokimyat egasi bo'lgan. Rasmiy jihatdan Rim fuqarolari xalq majlisi (komitsiyalarda) da ishtirok qilishga, Rim qo'shinida xizmt qilishga haqli bo'lganlar.

Rimda uch xil komitsiya bo'lgan . Eng qadimgi komitsiya- qur'ali majlis bo'lib, u faqat rasmiy jihatdan ijro qiluvchi hokimyatni –“imperiya –magistratlarga topshirish va munosabatlarga doir ba'zi masalalarni hal qilish huquqiga ega bo'lgan xolos. Ilk respublika davridagi komitsiyalar o'zlarining siyosiy ahamiyatini yo'qotgan.

Xalq majlislarining boshqa bir turi senturiya komitsiyalari muhim o'rin tutgan. Ular dastlab shahar lashkarlarining yig'inidan iborat bo'lgan, keyinchalik patritsiy va plebeylarning senturiyalar va mulkiy darajalariga qarab chaqiriladigan majlislarga aylangan.

Senturiya komitsiyalari Rim xalqining irodasini ifoda qilgan: ular oliy mansab egalari bo'pmish konsullar, pretor, senzorlarni saylagan, jinoiy ishlarni tekshirgan, urush e'lon qilish va sulh tuzish masalalarini hal etgan .

Triba komitsiyalari (tribalar bo'yicha chaqiriladigan majlislar) eramizdan avvalgi III asrda Gortenziy maxsus qonun chiqarib ularning qonun chiqarish huquqini tasdiq qilgandan keyingina katta ahamiyat kasb etadigan bo'lgan. Bu senturiya komitsiyalariga qaraganda ancha xalqchil bo'lib majlislarida senzidan qat'i nazar Rimdagi barcha fuqarolar qatnashgan. Triba majlisleri odatda qonun chiqarishga doir masalalarni hal etgan, quyi mansabdorlarni saylagan, ba'zi bir jinoiy ishlarni ko'rgan. Faqat magistratlargina Rim xalq majlislarinicha qirish huquqiga ega bo'lgan.

Ijro qiluvchi hokimyat bir yil muddatga xalq saylab qo'yadigan mansabdorlar – magistratlar qo'lida bo'lgan. Ular bajargan vazifalari evaziga hech qanday haq olmagan (bu vazifalar fuqaroning faxrli ishi deb hisoblangan), haq olmasliklari evaziga yana saylangunga qadar ziyofatlarga vafuqarolarga beriladigan sovg'alarga o'z mablag'larini sarf qilishga majbur bo'lgan. SHu bois bu lavozimni faqatgina sarmoyador shaxslargina egallagan xolos. Rim magistratlari kollegial tarzda ish olib borgan ya'ni qarorlar bir ovozdan qabul qilingan, magistrat o'z sheriklarining qarorlaridan rozi bo'lmigan taqdirda norozilik (veto) bayon qilgan. Magistrat daxlsiz shaxs bo'lgan. U o'zinig vakolat muddati tugamaguncha javobgarlikka tortilmigan. Faqat xalq unga vakolatni tark qilishnitaklif etishga haqli bo'lgan.

Magistratlik odatdan tashqari (favqulodda) va odatiy (doimiy) holatlariga bo'lingan. Odatdan tashqari magistratlar (diktator, triumvirlar va detsemvirlar) alohida holat, davlatda biron xavf –xatar yuz berganda saylangan yoki tayinlangan.

Diktator tayinlash to'g'risida faqat senat qaror qilishi mumkin bo'lgan .Ba'zi hollarda senturiya komitsiyalari bevosita diktator tayinlashga haqli bo'lgan. Diktator birdan –bir nokollegial magistratlik bo'lgan. Harbiy vafuqarolik hokimiyati olti oy mobaynida uning qo'lida bo'lgan, uni sudga tortish mumkin bo'lmagan ,xalq tribunlarining noroziligi unga ta'sir qilmagan. Ammo diktator ta'sis qilinayotganda magistratlar avvalgiday o'z huquqlaridan foydalanganlar. Diktatorning oliy nishoni bo'lgan: uni doim 24 faxriy soqchi (liktor) kuzatib yurgan.

Odatda oliy magistratlik 2ta konsul, pretorlar, sensorlar vaxalq tribunlaridan, quyi magistrlik – edillar va kvestorliklardan iborat bo'lgan .Rim respublikasining oliy mansabdorlari bo'lmish konsullar har yili senturiya komitsiyalarida saylangan. Harbiy fuqorolik hokimiyati konsullar qo'lida bo'lgan . Konsullar qo'shin to'plagan, ularga qo'mondonlik qilgan, bir qism harbiy tribunlarni tayinlagan. Fuqorolik hokimiyatiga ega bo'lgan konsullar senatni, xalq majlislarini chaqirgan, ularning qarorlorini bajargan, mansabdorlarni saylash ishiga rahbarlik qilgan. Konsullar hokimiyati kollegial hokimiyat bo'lgan. Konsullardan biriga yakka hokimiyat berish (qo'shinlarga qo'mondonlik qilish) masalasi qur'a tashlash yo'li bilan yoki konsullarning o'zaro kelishi, yo bo'lmasa senat karori bilan hal etilgan.

Pretorlar sud ishlari bilan shug'ullangan (sud komitsiyalarida ,raislik qilgan), viloyatlarni boshqargan vakonsullar yo'q paytda ularning o'rnini bosgan va senat topshirig'i bilan legionlarga qo'mondonlik qilgan.

Ikki sensor (odatda sobiq konsullardan) besh yilda bir marta 18 oy muddatga senturiya komitsiyalari tomonidan saylangan. Ular har besh yilda bir marta senz belgilangan: barcha fuqarolarni ro'yhatga olgan, har bir fuqaro bilan shaxsan suhbatlashib uning mulkiy ahvolini bilgan va tegishli mulkdorlik darajasi ro'yhatiga kiritgan hamda tribalarga bo'lgan. Sensorlar kim oshdi savdosi bilan besh yil muddatga davlat mulklari daromadini to'plash huquqini va boj to'plash huquqini sotganlar. Rim fuqarolarining ahloq tozaligini nazorat qilish ham sensorlar ustiga yuklangan.

Xalq tribunlari har yili triba yig'inlarida saylangan. Boshqa magistratlar shaxsi singari tribun shaxsi ham umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan. Har bir xalq tribuni senat yoki mansabdorlarning qaroriga norozilik bildirgan. Tribunlar tribalarda xalq yig'inlarini chaqirishga haqli bo'lib, bu yig'ielarga raislik qilganlar. tribun vakolati Rim va uning atrofi bilangina cheklangan .

Kichik magistratlardan bo'lmish edillar shaharda tartib saqlanishini nazorat qilib, shahar soqchilariga boshchilik qilganlar, obodonchilikni kuzatganlar, shaharning oziq-ovqat bilan uzluksiz ta'min bo'lishi uchun javobgar bo'lganlar, xalq tomoshalari va bayramlarini tashkil qilganlar.

Kvestorlar ham kichik magistratlarga mansub bo'lgan. Ular triba komitsiyalarida saylangan. Ular xazinachilik vazifasini bajarishgan, davlat arxivini qo'riqlashgan, viloyat hokimlariga yordamchi bo'lganlar va harbiy xazinaga mudirlik qilganlar. Har bir magistrat ixtiyorida ko'plab xattotlar, liktorlar, jarchilar hamda ozod qilingan qullardan va davlat qullaridan iborat boshqa xizmatchilar bo'lgan.

Senat Rim respublikasining oliy davlat organi hisoblangan. Eramizdan avvalgi I asr boshlarigacha senat 300 kishidan iborat bshlib, ularning ko'pini nobillar tashkil etgan. Senatorlarni sobiq magistratlardan ularning darajasiga qarab: avvalo sobiq diktatorlarni, ulardan keyin sobiq konsullarni, keyin sobiq pretorlar va hakazolarni sensorlar tayinlagan. Senatni faqat oliy magistratlargina chaqirishga haqli bo'lgan. O'sha magistratlar senat majlislarida raislik qilgan. Eng e'tiborli xalq majlislari senturiya komitsiyalari bo'lib, boshda ular odatdagi askarlar yig'inidan iborat bo'lgan. Fuqarolar butun qurol-yarog'larini osib, 17 kunlik ovqat zahirasi bilan senturiya komitsiyalariga kelishgan. Tribunlardan tashqari magistratlarning hammasi harbiy boshliq lar lavozimida bo'lishgan, legionlarga qo'mondonlik qilishgan yoki urush olib borishga bevosita aloqasi bo'lgan boshqa vazifani bajargan.Senat ham asosan harbiy ishlarga rahbarlik qilgan.

Rim respublikasining harbiy sistemasi eramizdan avvalgi V asrda Rim jamoasi qo'shni xalqlarga qarshi uzluksiz urush olib borgan sharoitda tarkib topgan. Dastlab Rimning butun lashkari legion deb atalgan. Keyinroq ikki konsulning har bittasi o'ziga legion tuzib, unga qo'mondonlik qilgan. Eramizdan avvalgi IV asrda konsul qo'shini ikki legionga ajratilib, butun armiyada to'rtta legion bo'lgan.

Konsullar sensor tomonidan tuzib berilgan ro'yhatga muvofiq xalq majlisi oldindan belgilangan kuni askarlar to'plangan. Har bir legion og'ir qurol-yarog' bilan qurollangan 3000 askar va engil qurolli 1200 askardan iborat bo'lgan, uning tarkibiga suvorilar ham kiritilgan, ular oti bor kishilardan tashkil topgan. Legion xiyla mayda qo'shilmalardan iborat 30ta manipulaga ajratilgan. O'z navbatida har bir manipula 60 va 30 kishidan iborat ikkita senturiyaga ajratilgan. Sababi bu ixcham qo'shilmalar chaqqon harakat qilgan. Legion qat'iy tartibda saf tortgan. Eng oldingi qatorni engil qurolli 1200 yosh jangchi (nayzabadorlar) band qilgan. Ikkinchi jangovar qatorni og'ir qurolli, sal kattaroq yoshdagi 1200 jangchi tashkil etgan. Ular prinsepslar ("birinchilar" yoki "asosiylar") deb atalgan. Ulardan naribroqda (yana og'ir qurolli, tajribali) 600ta triariy saf tortgan¹.

Legionerning hujum qurollari bir muncha takomillashtirilgan. U sanchish va chopish uchun qulay vamustahkam shamshir, dushmanga uzoqdan otish uchun og'ir va engil nayzalar bilan qurollangan bo'lgan. Eramizdan avvalgi II asr oxirlarida legionerlarning asosiy quroli pilum deb atalgan otadigan qurol, uchi o'tkir ingichka temir tayoq bo'lgan. Legionlarga konsullar, legatlar (konsullarning urushdagi yordamchilari) va harbiy tribunlar qo'mondonlik qilgan. Tribunlar otryad boshliqlarini urushda ish ko'rsatgan legionerlardan tayinlangan, ular senturionlar deb atalgan.

Legionlar to'xtab turgan paytda qulay lager qura bilganliklari harbiy san'atda faxrlansa arziydigan mahoratidir. Ularning lageri bir-birini kesib o'tgan ikki chiziq bilan bo'lingan to'rtburchak hosil qilingan. Bu chiziqlarlagerning katta ko'chalari bo'lib, ko'cha boshlariga darvozalar qurilgan. Legion qo'mondonining chodiri, qurbongoh va majlisgoh lagerning markazida bo'lgan. Lager suv va oziq-ovqat bilan ta'min etiladigan katta ko'chalardan biriga paralel tarzda tribunlarning chodirlari joylashtirilgan. Xandaq, ko'tarma va qoziq devor bilan o'rab olingan hamda soqchilar qo'riqlab turadigan lager dushman hujumidan yaxshi himoya qilingan va xavfsiz bemalol dam oladigan joy bo'lgan.

Rimliklar puxta o'ylab chiqilgan rag'batlantirish tadbirlari va jazo choralari vositasi bilan legionerlar orasida qattiq intizom o'rnatganlar. Konsul jangda ish ko'rsatgan askarni majlisda maqtab, faxriy nayza, oltin yoki kumush bilakuzuk, bronza sovut bilan mukofotlangan. Rim fuqarosini o'limdan qutqazgan jangchi eman bargidan yasalgan chambar bilan, qamal

¹ Bokshanin A. G. Drevnyaya Gretsia i drevniy Rim. Moskva. 1952 god. Str-129.

qilingan shahar devoriga yoki dushman kemasiga birinchi bo‘lib qadam qo‘ygan jangchi esa oltin chambar bilan mukofotlangan. Er uchastkasi legionerlar orzu qilgan zo‘r mukofot bo‘lgan.

Harbiy boshliqlar aybli ish qilib qo‘ygan jangchini jazolashga haqli bo‘lganlar. Jangda shaxsiy qurolini yo‘qotib qo‘ygan jangchini tribunlar kengashi hatto o‘lim jazosiga hukm qilgan. Jang vaqtida chekingan yoki qo‘zg‘olon qilgani uchun qo‘mondonlar eski “detsimatsiya” odatini qo‘llaganlar, ya’ni chek tashlab har o‘n jangchidan birini qatl etganlar.

Qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilikda qullar mehnatidan tobora kengroq foydalanila boshlangan. Qullar qurilish ishlariga, Rim flotida eshkak eshishga jalb qilingan. Davlat ixtiyoridagi qullar kohinlar kollegiyasiga kiritilgan, ibodatxonalarda kohin yordamchisi vazifasini bajargan, jarchilik, jallodlik qilgan vahakazo. Davlat ixtiyoridagi qullar xususiy shaxslarning qullaridan ko‘ra ba’zi imtiyozlarga ega bo‘lganlar. Davlat ixtiyoridagi qullar ma’lum moyana olganlar, ayrim hollarda Rim sudiga shikoyat qilishga haqli bo‘lganlar.

2.Urushning boshlanishi sabablari va I, II - Puni urushlari.

Eramizdan avvalgi III asr o‘rtalariga kelib, O‘rta dengiz g‘arbida ko‘pdan beri hukmronlik qilib kelgan Karfagen davlati va endigina tashlil topgan Rim quldorlik kon federatsiyasi bu erning kuchli davlatlaridan bo‘lgan.

Karfagen ham, Rim ham agressiv tashqi siyosat olib borgan. Ularning quldorlik iqtisodiyoti shuni toqozo qilgan, chunki harbiy ekspansiya- iqtisodiyotning rivojlantirilishini zaruriy sharti bo‘lgan. Bu davlatlarning har qaysisi Urta dengiz g‘arbida gegemon bo‘lishga uringan. Ermizdan avvalgi III asr o‘rtalarida bu ikki davlat o‘rtasidagi ziddiyatlar birinchi Puni urushining boshlanishiga olib kelgan (rimliklar karfagenliklarni puniliklar deb atashgan).

Karfagen yoki Kar-xadasht (finikiycha –“yangi shahar” deganidir) Finikiyaning eramizdan avvalgi IX asrdayoq barpo bo‘lgan katta Tir shahrining Koloniyasi bo‘lgan. Eramizdan avvalgi

V asr urtalariga kelib karfagen kengbir davlatning markaziga aylangan. Bu davlat shimoliy Afrika sohilining bir qismini (Tunis qo'ltig'ining g'irg'og'ini), Sitsiliyaning g'arbiy qismini, Malta, Sardiniya, Korsika, Pitius, Bolear orollarini o'z ichiga olgan. Karfagen juda katta vao'ziga xos bir shahar bo'lib, g'oyat qulay joylashgan. U Afrikaning shimoli-g'arb sohilidagi kichikroq yarim orolda qurilgan. (hozirgi Tunisdan shimoli-g'arbda) Uning bunday muhim joyda joylashganligi Karfagenliklarga asosiy dengiz yo'lini nazorat qilib turish imkonini bergan. Materikda uch qator kuchli mudofa inshootlari bilan himoya qilingan shahar istehkomi dengizdan xiyla ichkariga kirib ketgan yarim orolda bo'lgan. SHahar aholisi chshaydigan serfunus mahallalar, bozor, do'konlar, hunarmandlarning ishhonalari istehkom devorlari orqasidan joy olgan. Tashqi (savdo) va ichki (harbiy) ikkita gavani bo'lgan port Karfagenning fahri hisoblangan.

Rim konfederatsiyasiga xos xususiyat Karfagen davlatiga ham xos bo'lgan: bu davlat tarkibiga kirgan shaharlar, viloyatlar va qabilalarning iqtisodiy va xuquqiy ahvollari xilma-xil bo'lgan. Ba'zi shaharlar huquqda

Karfagen bilan teng bo'lgan. Eng muhim savdo yo'llarini karfagen o'z qo'lida mustahkam ushlab turishi uchun odatda mustamlakalar strategik va geografik jihatidan eng muhim joylarga o'rnashtirilgan. Bu erlardagi aholi faqat Karfagen nazorati ostidagina tashqi savdo olib borishi mumkin edi. Aholi savdo boji va erdan foydalanganligi uchun soliq to'lashga, shuningdek, puni armiyasida xizmat qilishga majbur edi.

Karfagen, Tir va Aleksandriya qadimgi jahon savdosi markazi deb hisoblangan. Quldorlik qullar, tovarlar va xom ashyo bilan vositachilik savdosi olib borish karfagen iqtisodiyotining farovonligi uchun muhim hisoblangan. Karfagen savdogarlari misr bilan Egey dengiz havzasi, shuningdek Etruriya, Ispaniya, Afrika bilan savdo-sotiq olib borganlar. Karfagen dengizchilari Gibraltar orqasiga (Melkard ustunlarigacha) va hatto qalayi olib kelishi uchun uzoq Britaniya qirg'oqlarigacha borganlar.

Karfagenni o'zi hunarmandchilik markazi ham bo'lgan. Bu erda savdo-sotiqning gullab-yashnashiga qiziqqan boshqa mamlakat hunarmandlari va savdogarlari shu erga ko'chib kelishgan. Karfagenni iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi g'oyat muhim o'rin tutgan. Doim shaharda yashagan Karfagen mulkdor-

larining Bag'rat daryosi vodiysidagi unumdor erlarda o'z amloklari bo'lgan.

Keng maydonlarda minglab qullar uzum etishtirgan.

Karfagen respublikasida xalq majlisi bo'lsa-da, u muhim o'rin tutmagan. Xalq majlisining aa'zolari taklif kiritma olmaganlar, takliflarni muhokama qilishga va qaror qabulga haqlari bo'lmagan. Ularga faqat magistrlar saylash huquqi berilgan xolos. "Uch yuzlar kengashi" oliy davlat organi bo'lib, undan joriy ishlarni olib borgan "o'ttizlar kengashi" bilan "yuz to'rtlar

kollegiyasi” ajratilgan, bu kollegiya sud va nazorat organi bo’lsa kerak. Ijrochi hokimyat tepasida ikkita oliy magistr-suffetlar turgan. Bu lavozimdagi kishi maosh olmagan, u faqat bir yilga saylangan bo’lib, ularning birontasi o’z diktaturasini o’rnatishga imkon topa olmagan.

Armiya va kuchli harbiy flot oligarxik respublikaning tayanchi edi. Qo’shinning asosiy qismini yaxshi ta’lim ko’rgan va yaxshi qurollantirilgan yollanma otryadlar tashkil qilgan, hamda mustahkam harbiy intizom o’rnatilgan.

Bu ikki davlat o’rtasidagi asosiy kelishmovchilik hududlar masalasi hisoblangan. Shu bois birinchi puni urushi sitsiliya uchun kurashdan boshlangan. Sitsiliyaning ko’p qismi (g’arbiy) Karfagen qo’lida bo’lib, orolning kichik (sharqiy) qismini Sirakuza podshosi Agafokl egallab turgan. Tor qo’ltiq bilangina Italiyadan ajralib turgan bu orol rimliklar nazarida tasodifan ajralib qolgan o’lja bo’lgan¹.

Kompaniyadan chiqqan va o’zlarini mamertinlar, ya’ni urush xudosi Mars ning farzandlari deb atagan Kompaniya yollanma askarlarining Messana shaharini bosib olishlari urush boshlanishi uchun bahona bo’lgan. Sirakuza podshosi Agafokl xizmatida bo’lgan mamertinlar uning vafotidan keyin Messanani bosib olganlar. Bu voqeadan so’ng Sirakuzaning yangi hukmdori Gieron 2 Messanani qamal qilib mimertinlarga muvafaqiyatli ravishda qarshi chiqqan. SHunda mimertinlarning bir qismi Karfagendan yordam olmoqchi bo’lgan. Boshqa qismi esa yordam so’rab Rim senatiga murmojat qilgan. Bu holat dan Rim senati ikkilanib qolgan. Nihoyat tashqi bozorni kengaytirishdan manfaatdor bo’lgan guruh(savdogarlar va hunarmandlar)ning tayziqi bilan Rim xalq majlisi mamertinlarga yordam berish, ya’ni aslida Karfagenga qarshi urush boshlash to’g’risida qaror qabul qilgan.

23 yilga (er. av. 264-241 yillar) cho’zilgan birinchi puni urushi shu tariqa boshlangan. Rim qo’shinlari dastlab katta muvafaqiyatlarga erigshgan

Sitsiliyaga suzib borib, Messanani ishg’ol qilganlar, so’ngra Akragantni qo’lga kiritganlar, keyin Gieron 2 bilan ittifoq tuzganlar. Ammo quruqlikda doim g’alaba qozongan Rimliklar dengiz janglarida doim mag’lub bo’lganlar, chunki ularning harbiy floti bo’lmagan. Karfagen kemalari Italiya qirg’oqlariga hujum boshlagan, natijada Sitsiliya oroli bilan Italiyaning janubiy qismini qurshab olgan. SHunda Rim senati flot tashkil etish to’g’risida qaror qabul qilgan. Bunga muvofiq ravishda Rimliklar 100 ta penter (ya’ni besh palubali kema) va 20 ta uch palubali kema yasab, ularni zamonaviy holatda qurol-yarog’ bilan jihozlaganlar: kemalarning boshiga “abodaj ko’priklari” qurilgan, ko’prik boshlariga ilmoqlar birkirilgan, yonlariga panjaratutilgan. Bu ko’priklar

¹ Sergienko. M. E. Prostie lyudi drevney Italii. Moskva. 1964 god.

dushman kemalarining palubalariga tashlanadigan bo'lgan, unda qilichbozlik qilingan. Rim legionlari qilichbozlikda azaldan dong taratgan.

Er. av. 260 yilda Mila buruni vashahri yonida (Sitsiliyaning shimoliy Qirg'og'ida) konsul Gay Dauliy qo'l ostidagi jangda rimliklar Karfagen floti ustidan birinchi marta muvaffaqiyatli g'alaba qozonganlar. Keyinchalik uning sharafiga rostral ustun (kema burni bilan bezatilgan ustun lotincha Kema burni deganidir) qurulib, unga o'sha jangning tasviri tushirilgan. Bu haykal qo'lga tushirilgan dushman kemalarining misdan yasalgan burunlari bilan bezatilgan. Senat Duiliy sharafiga katta hurmat ko'rsatgan. Uni doim ikkita naychi , bitta mash'alachi kuzatib boradigan bo'lgan, ular fuqarolarga g'olibning kelayotganidan darak berishgan.

Bu g'alabadan ruhlangan rimliklar urushni bevosita Karfagen hududida olib borishga qaror qilganlar. Er.av.256 yilda ikkita konsul qo'mondonligi ostida rimliklarning 330ta kemasi Afrika sohillari tomon yo'l olgan. Rim floti Eknom buruni yonida Karfagen flotiga duch kelib unga qattiq talofat etkazgan. Quruqlikdagi qo'inlar ham katta muvofaqiyatga erishganlar. SHundan so'ng g'alabaga ishongan rim senati konsullardan biriga qo'shinning bir qismini va asirlarni olib rimga qaytishni buyurgan. Afrikada qolgan konsul Mark Atiliy Regul bir qancha vaqt davomida g'alaba qozonib turgan.

Ammo rim qo'shinlarining uzoq muddatli urushga tayyorgarligi bo'lmagan. SHu bois er. av. 255 yilda Karfagenning yollanma armiyasi Regul qo'shinlarini tor-mor etgan konsulning o'zi asirlikda vafot etgan. Qolgan qutgan qo'shinini olib rimga qaytib borayotgan flot dovulda qolib deyarli hammasi halok bo'lishgan.

Natijada urush harakatlari yana Sitsiliya tuprog'iga kuchirilib, goh u tomon g'alaba qozonib turgan. Rimliklar yana dengiz flotini barpo qilishga majbur bo'lganlar, chunki flotsiz urushni muvaffaqiyatli tugashi mumkin bo'lmagan. Bu vaqt xazina bo'shab qolganligi bois mulkdor fuqarolardan olingan tribut (qarz) hisobigagina flot qurilgan. Rimliklarning yangi floti Egata orollari yonidagi jangda muvaffaqiyat qozongan. Oqibatida 23 yilga cho'zilgan urush har ikki tomonni holdan toydirgan. SHuning uchun ham rim senati karfagenning sulh muzokaralarini boshlash to'g'risidagi taklifini qabul qilgan. Er. av. 241 yildagi sulh shartnomasiga binoan Karfagen 10 yil davomida Rimga 3200 talant miqdorida tovon to'lashi, asirlarni qaytarishi, o'z qo'shiniga Apenin yarim orlidagi qabilalardan askar yollamasligi va eng muhimi, o'zining Sitsiliyadagi mulklarini Rim ho-kimyatiga topshirishi lozim bo'lgan.

Birinchi puni urushidan keyingi yillar Karfagen uchun juda og'ir bo'lgan. Xatto Rimliklar bundan foydalanib er. av. 238 yilda Sardiniya bilan korsikani bosib olganlar. Bu xolat karfagenliklarning rimga nisbatan nafratini yanada kuchaytirgan. Sitsiliya, Sardiniya va Korsika rimning Italiyadan tashqaridagi dastlabki mulklari bo'lib, ular viloyatlar

deb atala boshlagan. SHundan so'ng karfagenliklar o'z mulklarini Iberiya (hozirgi Ispaniya) hisobiga oshirishga va uni kelgusida bo'ladigan urush maydoniga aylantirishga qaror qilganlar. Ularni qiziqtirgan narsa qimmatli metallarga boy Iberiya konlari va qo'shinni to'ldirib turishga imkon beradigan iber qabilalarining jasur jangchilari bo'lgan. Er.av. 237 yilda Gamilkar Barka qo'l ostidagi karfagen qo'shinlari Iberiyaga yo'l olgan. Ular bu erda katta muvaffaqiyatlarga erishganlar. Andaluziyadagi bir qancha qabilalarni o'ziga bo'ysundirib tog'dagi konlarni qo'lga kiritganlar. Ammo er. av. 229 yili iberlar bilan bo'lgan jangda Gamilkar vafot etgan. Armiyaga qo'mondonlik uning kuyovi Gasdrubal qo'lga o'tgan. U Iberiyaning Janubiy-sharqiy qirg'og'ida kumush konlarga yaqin joyda katta YAngi Karfagen (hozirgi Kartaxen)shahrini barpo etgan. Bu shahar Karfagenning Iberiyadagi tayanchi edi. Gasdrubalning muvaffaqiyatlaridan tashvishga tushgan rimliklar ular bilan yangi shartnoma imzolashganlar. Bunga binoan Karfagenlikliklar Iber daryosidan shimolda er band qilishga haqlari bo'lmagan. Er. av. 221 yilda keltlar Gasdrubalni o'ldirishgan. Uning o'rniga Gomilkar Barkaning o'g'li, Rimliklarga dushmanlik ruhida tarbiya olgan, yigirma besh yoshlik Gannibal bosh qo'mondon etib saylangan. Gannibal Karfagenning eng atoqli lashkar boshisi bo'lmish otasi va qarindoshlarining rahbarligida g'oyat qattiq urush maktabini o'tagan.

Birinchi puni urushi bilan ikkinchi puni urushi o'rtasida (er. av. 241-218 yillar) rim jamiyatida katta ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar yuz bergan. SHu bilan birgalikda demokratik intilishlar ham kuchaygan, chunki birinchi puni urushidan keyin dehqonlar siyosiy voqealarga qiziqio'i kuchaygan. Er. av. 241 yilga kelib senturiyat komitsiyalarida mazmunan demokratik islohot o'tkazilgan. Agrar masala keskin tus olib ketgan. Dehqonlar yangi chek erlarni berilishini talab qilib chiqqanlar. Xalq tribuni Klavdiy taklifi bilanyirik senatorlarning manfaatlariga zid qonun qabul qilingan. Bu qonunga muvofiq senatorlarga savdo kemalariga egalik qilish man etilgan. Suvoriylar manfaatiga mos keladigan bu qonunning joriy qilinishi ularning rim demokratiyasi bilan yaqinlashganligidan dalolat beradi. Senatorlar savdo va pul operatsiyalaridan chetlashtirib qo'yilgan. Bu ishlar bilan karfagenga qarshi urush qilishdan juda ham manfaatdor bo'lgan ana shu suvoriylargina shug'ullanganlar¹.

Ikkinchi puni urushi (er. av. 218-201 yillar) uzining ko'lami, tarixiy ahamiyati jihatidan qadimgi dunyoning eng katta urushlaridan biri bo'lgan. Uning boshlanishiga Iberiyada Iber daryosidan janubroqda dengiz qirg'og'ida joylashgan Sagunt shahri bilan bog'liq voqealar bahona bo'lgan. Bu shahar rim bilan ittifoqchilik shartnomasini tuzgan. Er. av. 219 yili Karfagen armiyasini yangi bosh qo'mondoni Gannibal Saguntni qamal qilib so'ng egallagan, aholisini qul qilib sotib yuborgan. Bu Rim uchun atayin qilingan ish edi. Rim senati Karfagenga elchi yubori, Rim xalqining ittifoqchilariga nisbatan qilingan jabr zulm uchun Gannibalni Rim

¹ Dyakonova. I. M. Istoriya drevnogo Rima. Moskva. 1983 god. Str-203.

qo'liga topshirishni talab qilgan. Bu talab rad qilingan taqdirda Rim Karfagenga qarshi urush boshlashini bildirgan.

Rim senati uzoqqa cho'zilmaydigan urushga tayyorgarlik ko'rgan. Konsullardan biri Sitsiliya qirg'oqlaridan chiqib, qo'shinni Afrika qirg'oqlariga tushirishi lozim bo'lgan. Ikkinchi bir konsul – Publiy Korneliy Spitsion Gannibal bilan jang qilish uchun Iberiyaga yul olgan. Ammo Gannibal rimliklarni o'z rejalaridan qaytishga majbur etgan. U o'z dushmanlarini g'aflatda qoldirib hozirgacha qo'shin o'ta olmaydigan to'siq deb hisoblangan Alp tog'lari orqali shimoldan Italiyaga to'satdan bostirib kirishni mo'ljallagan.

Gannibal er. av. 218 yilning erta bahorida o'zining armiyasi va juda ko'p fillari bilan YAngi Karfagendan Italiyaga yo'l olgan. U Karfagen armiyasi qo'qqisidan Apenin yarim orolida paydo bo'lishi bilan Rim konfederatsiyasi qulab ketadi deb o'ylagan. SHimoliy Italiyadagi gallar unga yordam ko'rsatishga va'da berganlar. Gannibal qiyinchiliklar bilan Pireneydan o'tib, gallarning ba'zi qabilalari bilan jang qilib, o'rta dengiz qirg'oqlari bo'ylab yo'l olgan.(Hozirgi Rona) Rodan daryosiga yaqinlashganida Rim lashkarboshisi Spitsion Rimning ittifoqdoshi Massiliya (Marsel) ga etib kelgan. Karfagenliklar buerda jang qilmaslikka ahd qilganlar. Ular qirg'oq bo'ylab yuqoriga yo'l olganlar, asosiy kuchlarini daryoning chap qirg'og'iga chiqarib, o'zlariga halaqit bermoq-chi gallarni tor-mor etganlar. Rim konsuli ularning ortidan borishni ep ko'rmagan. Gastrubal Iberiyaga o'zi esa Italiya tomon yo'l olgan.

Gannibal Rodan daryosidan kechib o'tgandan keyin sharq tomon burilib o'zining Alp orqali mashhur 33 kunlik oshib o'tishini boshlagan. Bunday noqulay ob-havo sharoitida bir qancha jangchilar otlar va fillar jarga qulab tushgan, bu vazifa ado etilganida Gannibalning atiga 20 ming piyoda 6 ming otliq askari va bir oz fillari qolgan edi. Lekin kelt qabilalari Gannibalga qo'shilib, uning armiyasiga madad bo'lgan. Karfagenliklar Italiyadagi birinchi janglardayoq Rim konsullarining armiyalari ustidan g'alaba qozonganlar . Eng katta jang shimoliy Italiyada , Padus daryosining irmog'i Trebiya yonida bo'lib, Spitsion bilan Semproniy mag'lubiyatga uchragan.

Rim qo'shinlari Etruriyadagi Arritsiy shahri yonida joylashib, shimoldan janubga yurib kelayotgan Gannibalning yo'lini to'sgan. Lekin Gannibal o'z qo'shinlari bilan Rim liklarning o'tib bo'lmas pozitsiyalarini aylanib o'tgan. Uning qo'shini Arnus daryosi toshishi bilan poydo bo'lgan botqoqlikni to'rt kun davomida kechib o'tgan. Gannibal ko'zidan ajragan lekin uning bu qiyinchiliklari zoe ketmagan. CHunki orqasidan ta'qib kelayotgan Rim armiyasining orqa tomoniga o'tib ularga qarshi pistirma qo'ygan. Trazimen ko'li bo'yida Rim qo'shinlariga uch tomondan hujum qilib ularni qirib tashlagan, asir tushganlarni qo'yib yuborgan. Rim aholisi Gannibalning shaharga bostirib kirishi mumkinligidan vahimaga tushgan.

Ammo er.av.216 yili Gannibal Rimni chetlab o'tib – Apuliyaga kirib bor-gan. Bu bilan u Karfagen bilan aloqa bog'lashni va Italiya janubidagi aholidan yordam olishni ko'zda tutgan.

Italiya janubida, Apuliyadagi Kanna Yaqinida, Aufid daryosi etagida, er. av. 216 yilning yozida qattiq jang bo'lgan, buqadimgi dunyo urushlari tarixidagi eng shiddatli janglardan biridir. Rim qo'shinida 80 ming piyoda, 6 ming otliq askar bo'lgan. Karfagenliklarda esa gallarning otryadlarini ham qo'shib hisoblaganda 40 mingdan sal ortiqroq piyoda, 14 ming otliq askari bo'lgan. Gannibal o'z qo'shinini juda ustalik bilan qavarib turgan tomonini dushmanga qaratib yarim oy shaklida joylashtirgan. Bu shaklning markaziga ishonchini unchalik ta'min eta olmaydigan qismlarni, ya'ni iberlar bioan gallarning otryadlarini qo'ygan. Lekin yon tomonlariga Karfagenliklar tanlangan piyoda va otliq askarlarni joylashtirganlar. Jangni engil qurollangan yordamchi qo'shinlar boshlab bergan. Keyin esa otliqlar jangga kirgan¹.

Rim piyodalarining zich va ixcham qatorlari Karfagenliklar qatorining qoq o'rtasiga hujum qilgan. Natijada Gannibal qo'shining oldinda qavarib turgan qismi orqaga surilib, front liniyasi yarim oy shaklini olib, Rimliklar bu shakl o'rtasida o'ralib qolgan. Ayni vaqtda rimliklarni yon tomonlariga liviyaliklarning piyoda askarlari, karfagenliklarning otliq askarlari tashlangan shunda rim otliqlari tarqab ketgan. Karfagen otliqlari rimliklarning orqa tomoniga o'tib olgan, Rimliklar hamma tomondan qurshovda qolgan. Rimliklarning 58 ming askari qirib tashlangan 18 ming askari asir tushgan. Terrensiy Varron qolgan – qutgan qo'shin bilan Rimga qaytib kelganida senat tantanali suratda unga peshvoz chiqib, omon qolgan askarlarni to'plab olib qaytgani va vatanni qutqazishdan umid uzmagani uchun minnatdorchilik bildirgan.

Rimliklarning Kanna yonidagi mag'lubiyati samniylar, lukanlar va bruttiylarning Rimdan ajralib chiqib ketishiga sabab bo'lgan. SHimolda gallarning qo'zg'olonlari kuchayib ketgan. Boy Kapuya va Sirakuza Gannibal tomoniga o'tgan. Bundan tashqari Makedoniya podshosi Filipp V u bilan ittifoq tuzgan. Gannibalga karfagenliklar ham yordam bergan: 25 ming kishilik qo'shin Sitsiliya oroliga kelib tushgan. Ammo shunga qaramay Gannibalning ahvoli og'ir bo'lgan. Keng hududda uzoqqa cho'zilgan urush olib borish, qo'shinni darhol to'ldirishni, odam zahiralarni va moddiy manbalarni talab qilgan.

Rimliklar Kanna yonidagi ko'rgan talofatidan keyin 17 yoshdan tortib barcha erkaklarni yoppasiga safarbar qilganlar. Rim senati qaltis chora ko'r ishga – qullarni quldorlardan sotib olib, armiya safiga chaqirga majbur bo'lgan. Ularga bitta dushmani ham o'ldirgan kishi ozod bo'ladi deb va'da qilingan. Rimliklar Fabiy Maksim taktikasiga amal qilib katta janglarda chap bergan, kichik – kichik to'qnashuvlar bilan dushmanning sillasini quritganlar. SHunday qilib urush davomida rim foydasiga burilish yue bergan. Rim legionlari Sirakuzani qamal qilgan. Sitsiliyadagi eng katta shaharning mudofasiga matematik injener Arximed rahbarlik qilgan. U

¹ Sergienko. M. E. Prostie lyudi drevney Italii. Moskva. 1964 god. Str-71.

yasagan mashinalardan qamal qilayotgan dushmangasnaryadlar otilgan mashinalar vositasi bilan kemalar burnidan ilintirilgan, ular ko'ndalang aylantirilib ag'darib tashlangan. Qamaldan holdan toygan Sirakuzani Rimliklar er. av. 211 yili ishg'ol qilib shaharni talaganlar. Arximed o'ldirilgan.

Rim senati er. av. 215 yilda Pergam podshosi Attal I bilan, Etoliy ittifoqi va boshqa grek davlatlari bilan shartnoma tuzib, Gannibalning ittifoqchisi bo'lmish Makedoniya podshosi Filipp V ga qarshi urush olib borgan.

Birinchi makedoniya urushi er. av. 205 yilda Makedoniyaning to'la mag'lubiyati bilan tugagan. O'sha paytda senat qobilyatli yosh lashkarboshi Publiy Korneliy Spitsionni Iberiyaga yuborgan. U Karfagenning Ispaniyadagi tayanch punkti bo'lgan YAngi Karfagenni bosib olgan. Bu muvaffaqiyatlardan keyin Rimliklar Italiyaning o'zida ham xiyla jonliroq harakat qilishga jur'at etganlar. Ular dastlab Kapuyani qamal qilganlar. Gannibal Rimliklarni kuchlarini Kapuyadan chalg'itish uchun butun urush davomida birinchi marta Rimga otlangan, ammo yaxshi himoyalangan shaharga hujum qilishga botinmay, chekingan. Gannibal Kapuyaga ta'sirli yordam ko'rsata olmagan.

Er. av. 211 yilda Kapuyaliklar g'oliblar hukmiga bosh egib taslim bo'lganlar, oqibatda ko'p aholi qul qilib sotilgan, erlari musodara qilingan. SHahar o'zining muxtor huquqlaridan mahrum qilingan. So'ngra Italiyadagi Gannibal ittifoqchilarining undan ajralish jarayoni boshlangan. Kompaniya shaharlari, Tarent Rimliklar qo'liga o'tgan. Gannibal itliyaning janubida qamalib qolgan. U faqat so'ngi ishonchi, Ibeiryadan qo'shin tortib kelishi lozim bo'lgan ukasi Gastrubalning madadiga qarab qolgan. Gastrubal muvaffaqiyat bilan Alpni oshib o'tgan bo'lsa-da, SHimoliy Italiyada, er. av. 207 yili Metavra daryosi bo'yidagi jangda uning qo'shinini rimliklar tor-mor keltirganlar. Gastrubalning o'zi o'ldirilgan.

Er.av. 204 yili Rimliklar urush harakatlarini Karfagenning Afrikadagi hududiga ko'chirganlar. Spitsion qo'mondonligi ostidagi Rim armiyasi Utika yonida kemalardan tushib Bagrat daryosi vodiysidagi hosildor erlarni g'orat qila boshlagan. Karfagenning qo'shnisi bo'lmish Numidiya podshosi Masinissa juda yaxshi tayyorgarlik ko'rgan Numidiya otliq askarlarini Spitsion ixtiyoriga bergan. Italiya erida o'n besh yil davomida urush olib borgan (va bunda biron marta mag'lubiyatga uchramagan) Gannibal Karfagen kengashining qarori bilan Karfagenga qaytib kelgan.

Er. av. 202 yilda Afrikada Zam qishlog'i yonida (Karfagendan janubda) So'ngi qat'iy jang bo'lgan. Butun urush yillari davomida mag'lubiyatni bilmagan Gannibal bu jangda tor-mor keltirilgan. SHundan so'ng Karfagen kengashi Rimliklar lageriga kelib, Spitsiondan sulh to'g'risida muzokara boshlashni yalinib iltimos qilgan. Er. av.201 yilda Karfagen uchun juda og'ir shartlar bilan sulh bitimiga imzo chekilgan. Eng avvalo shahar

Afrikaning tashqarisidagi mulklardan mahrum qilingan. Rim senatining ijozatidan tashqari o'z qo'shinlariga qarshi urush qilishi man qilingan. Karfagen 50 yil mobaynida Rimga 10 ming talant miqdorida tovon to'lashi, 10 ta soqchi kemadan tashqari butun flotini, barcha fillarini Rimga berishi asirlarni va olgan o'ljalarni qaytarishi, o'z armiyasini tarqatib yuborishi Afrikadagi Rim armiyasini boqishi, Karfagenning eng mo'tabar oilalaridan 100 kishini garov qilib berishi lozim bo'lgan. Gannibal er. av. 195 yilda Karfagendan suriyaga qochib ketgan.

3. III puni urushi va uning natijalari

Ikkinchi puni urushida Rimliklar Karfagen ustidan g'alaba qilganlaridan keyin ular muntazam ravishda Ellin sharqidagi davlatlarga suqulib kiraverganlar. 50 yil davomida rim olib borgan bosqinchilik urushlari natijasida Rim hokimiyati ostida O'rta dengiz qudratli quldorlik davlati tashkil topgan.

Rim qanchalik kuchli bo'lmasin ular baribir Karfagendan qattiq xavfsirar edilar. Chunki Rimning azaliy raqibi Karfagen o'rta dengiz bo'yi mamlakatlari ichida birdan-bir eng kuchli mamlakat bo'lgan. Bu vaqtga kelganda Karfagen o'zining iqtisodiy ahvolini anchagina

tuzatib, mustahkamlanib olgan edi. Mamlakat mulkdorlari, o'zlarining butun mablag'larini qishloq xo'jaligiga sarf qilganlar. Bu erda moy olish va vino pishirish ko'paytirilgan. Hunarmandchilik yaxshi rivoj topgan. Mahalliy qabilalar bilan savdo aloqalari taraqqiy etgan¹.

Rimning eng agressiv doiralari – tashqi savdodan manfaatdor bo'lgan suvoriylar va nobillar Karfagenning kuchayishini xavfsirab kuzatib turganlar. Ular Karfagen bilan urush qilishga uringanlar, bu urush natijasida shahar tag – tugi bilan vayron bo'lishini umid qilganlar. Er. av. 153 yili Karfagenga kelgan yozuvchi, sensor Mark Porsiy Katon shaharning iqtisodiy farovonligini ko'rib hayron qolgan. U senatdan bu shaharni yo'q qilib tashlash choralari ko'rishni qattiq turib talab qilgan. Katon senatda so'zlagan xar bir nutqini doim bir xil so'zlar bilan “ boshqa masalalarga kelganda men Karfagen vayron qilinishi kerak deyman “ deb tamomlar ekan. Va oxir oqibat natijasiga ko'ra er. av. 149 yili Rim uchinchi puni urushini boshlagan.

Bu urushning boshlanishiga Karfagen bilan numidiya o'rtasidagi chiqqan janjal bahona bo'lgan. Numidiya podshosi Rimning yordamidan foydalanib, Karfagen hududini bosib ola boshlagan, natijada qurolli to'qnashuvlar yuz bergan. SHunday bo'lsa xam Rim senati Karfagenliklar er. av. 201 yilda tuzilgan sulh shartnomasidagi shartlarni bajarmadi deb, aybni Karfagen ustiga qo'ygan. Mazkur shartnomaga muvofiq Karfagen Rimning ijozatisiz harbiy xarakatlar boshlashga haqi bo'lmagan. Rim Karfagenga qarshi urush e'lon qilgan. Karfagenliklar istagan shartlar bilan sulh shartnomasini tuzishga tayyor turganlar. Ular Rimning talabiga ko'ra qurollarini topshirishga rozi bo'lganlar. Ammo Rimliklar Karfagenliklarga shaharni bo'shatib, dengizdan 80 stadiy (15 kilometr) nari joylashishini taklif qilganlar.

Karfagenliklar oxirigacha o'zlarini himoya qilishga qaror qilganlar. Ular shahar devorlarini mustahkamlaganlar, shaharga oziq-ovqat tashiladi gan kommunikatsiyani himoya qilish uchun dala armiyasi tashkil etib, qullarni ozod etganlar. Qurol-yarog' ustaxonalari tinmay qurol yasab turgan.

Er. av. 149 yili Rim legionlari kemalardan Afrika qirg'oqlariga tushgan. Karfagenni shturm bilan ishg'ol qilish maqsadidagi dastlabki urinish muvaffaqiyatsiz chiqqan. SHundan keyin uzoq qamal boshlangan, lekin bu ham foyda bermagan. Faqat er. av. 147 yildagina konsul Publiy Korneliy Spitsion Emilian Afrikaga kelib tushgandan so'ng ahvol o'zgargan. U Karfa-genni tamomila qurshab olishga muvaffaq bo'lgan. Rimliklar Karfagenni dala armiyasini tor-mor keltirganlar. CHor atrofdan qurshalgan shahar ichida kasalliklar va ocharchilik boshlangan. Er. av. 146 yil yozida Karfagenga hujum boshlangan. Karfagen olti kun davomida har bir uy uchun jasurona kurash olib borganlar. Salkam 50 ming Karfagenlik Rimliklarga taslim

¹ Gordeev V.N. Istoriya drevnego mira. Drevnyaya Gretsiya i drevniy Rim. Leningrad. 1970 god. Str-46

bo'lgan, rimliklar ularni qul qilib sotib yuborganlar. SHaharni talash uchun legionlar ixtiyoriga qo'yib berilgan va kuydirilgan. SHahar hududi la'natlangan, ya'ni bu joyda turar joy qilish man etilgan. Avval Karfagenga qarashli erlarda Rim viloyati Afrika ta'sis qilingan¹.

Ayni vaqtda Rim liklar er. av. II asrda Ispaniyada uzoqqa cho'zilgan urush olib borganlar. Ikkinchi puni urushi vaqtidayoq (er. av. 206 yilda) ular Ispaniya sohilidagi hududlarni o'zlariga bo'ysundirganlar. Ammo Rimning Ispaniyada o'z mulkini yanada kengaytirish yo'lidagi urinishga iber qabilalari bo'lmish luzitanlar va keltiberlar qahramonona qarshilik ko'rsatganlar. Er. av. 154 yilda Ispaniyada Rimga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan. Ikki yilga cho'zilgan kurashdan keyin Rim qo'shinlari erksevar, jasur qabilalarni tor-mor qilgan. Ammo Rimga qarshi harakat davom etavergan. Er. av. 150 yilda bu harakat juda keng ko'lam olgan, chunki bu harakatga qobilchtli tashkilotchi va ajoyib sarkarda Viriat rahbarlik qilgan. Uning boshchili – gidagi luzitan otryadlari to'qqiz yil davomida Rim legionlari ustidan g'alaba qozonib kelgan. Er. av. 141 yilda Rimliklar qo'zg'olon yo'l boshchisi Viriatni Luzitaniyaning (hozirgi Portugaliya) podshosi deb tanishga majbur bo'lganlar. Ammo er. av. 139 yilda Viriat chodirda uxlab yotganida o'z yaqinlari tomonidan (Rim senati yollagan xoinlar) xoinona o'ldirilgan.

Viriat o'ldirilganidan keyin Numansiya shahri Rimliklarga qarshi harakat markazi bo'lgan. Bu shahar Duro daryosining boshida, o'tib bo'lmaydi-gan tog'liklarda joylashgan. YAxshi qurollanmagan numansiyaliklar Rimliklarning hujumlarini qaytaribgina qolmay, balki Rim qo'shinlarin qurshab olib, ularni taslim bo'lishiga majbur qilganlar. Er. av. 133 yilda Ispaniyaga kelgan tajribali sarkarda Publiy Korneliy Spitsion shaharni qamal qilib har qanday tashqi aloqadan mahrum qilganidan keyingina, nihoyat Rim legionlari Numansiyaning ishg'ol etganlar. SHundan keyin rimliklar shaxarni vayron etib, unga qarashli erlarni qo'shinlariga taqsim qilib berganlar aholisini esa qul qilib sotib yuborganlar.

Bir necha bor bosqinchilik urushi olib borishi natijasida Rim respublikasi g'oyat katta davlatga aylangan, uning mulklari Apenin yarim oroli kengliklarini ishg'ol qilibgina qolmay, undan tashqaridagi uzoq erlarga ham yoyilgan. Er. av. II asr o'rtalariga kelib Rim bir necha yuz ming kishi yashaydigan katta shaharga aylangan va o'rta dengiz sohillarining eng muhim siyosiy markazi bo'lib qolgan.

Er. av. II asrning birinchi yarmida deyarli tinmay olib borilgan bosqinlik urushlarining doim g'alaba bilan tugashi, Rimliklarning o'zlari ishg'ol etgan mamlakatlarni shipshiydam qilib qilib tashlashi, u mamlakatlardan behisob ko'p boylik va ko'p minglarcha harbiy asirlarni qulga aylantirili-shi Rim va Italiyada quldorlikning rivojlanishiga juda ham qulay sharoit yaratib bergan.

¹ Kovalev S. I. SHtaerman. E. M. Ocherki istorii drevnngo Rima. Moskva. 1956 god. Str-81.

Ammo Rim viloyatlaridagi aholini tinchlik vaqtida ham qul qilib sotganlar. Istilo qilingandan keyin viloyatda yashovchi aholining hammasiga og‘ir soliqlar solingan, bu soliqlarni ijarador (otkupshik) larning kompaniyalari to‘plagan. Senzorlar Rimda har besh yilda bir marta viloyatlarda soliq va o‘lpon to‘plashni kim oshdi savdosi orqali sotishgan. Xazinaga eng yuqori narx bilan haq to‘lagan ijaradorlar biron ma’lum viloyatlarda aholidan o‘lpon to‘plash huquqini olganlar. Soliq to‘plashni sotib olgan kishilar 200% dan 400 % foyda olgan. Bu ish shu qadar foydali bo‘lganki, Rim suvo – riylarining ko‘pchiligi va nobillarning vakillari ham o‘zlarining ozod qilingan qullari orqali bu ishda ishtirok etishgan.

Qullarning ozgina qismi o‘z ahvolini yaxshilash yo‘lini bilgan. Ba’zan ayrim qullar xo‘jayinlariga ko‘rsatgan yaxshi xizmatlari evaziga ozodlik olgan. Rimda “Labertinlar” (ozod qilingan) deb atalgan qullar sobiq xo‘jayinlariga ma’lum darajada qaram bo‘lgan. Xo‘jayinlar o‘z xo‘jaliklarni idora qilishni ko‘pincha ozod qilingan qullarga topshirganlar. Ba’zan qullar tegishli miqdorda pul jamg‘arib tamomila ozdlik olishga muvaffaq bo‘lgan. Ozod qilingan qullar ko‘picha hunarmandchilik vasavdo bilan mashg‘ul bo‘lgan. Ulardan boyib ketganlarning farzandlari Rim suvariylari toifasiga kirishga va shu bilan hukmron tabaqalar bilan qo‘shilishga muyassar bo‘lgan.

SHu bilan birgalikda erkin mayda dehqonlarning xonavayron bo‘lishiga asosiy sabab suv tekin qullar mehnati raqobatining kuchayib ketganligidir. Bundan tashqari mayda mulkdorlarning uzoq vaqt xarbiy xizmatda bo‘lishlari ham ularning xonavayron bo‘lish jarayonini tezlashtirgan. “ Gannibal urushi “ davrida Italiyadagi bir qancha viloyatlarnixarob bo‘lganligi, shuningdek er. av. II asr boshlarida Apenin yarim orolidan tashqarida Rim olib borgan boskinchilik urushlari davrida mayda erkin dehqonlarning ko‘plab legionlar qatoriga chaqirilishi ham ularning xonavayron bo‘lishiga turtki bo‘lgan. SHu bilan birgalikda Rim va Italiyaning g‘arbiy sohilidagi boshqa katta shaharlarning bozorlarida Sitsiliya oroli va Afrikadan keltirilgan arzon bug‘doyning paydo bo‘lishi ham mayda dehqonlarning holiga halokatli ta’sir ko‘rsatgan.

Er. av. II asrning 30- yillariga kelib, Rim respublikasi Urta dengiz sohilining eng yuksak rivojlangan quldorlik davlati bo‘lib olgan, bunda quldorlik jamiyatining ijtimoiy tuzilishi o‘z taraqqiyotining eng to‘la fazasiga erishgan.

Xulosa

Eramizdan avvalgi III asr o‘rtalariga kelib, O‘rta dengiz g‘arbida ko‘pdan beri hukmronlik qilib kelgan Karfagen davlati va endigina tashkil topgan Rim quldorlik konfederatsiyasi bu erning eng kuchli davlatlaridan bo‘lgan. Karfagen ham, Rim ham agressiv tashqi siyosat olib

borgan. Chunki ularning quldorlik iqtisodiyoti shuni taqozo etgan, sababi harbiy ekspansiya – iqtisodiyotni rivojlantirishni zaruriy sharti bo‘lgan. Bu davlatlarning har qaysisi O‘rta dengiz g‘arbida gegemon bo‘lishga uringan. Urushning boshlanishi uchun faqatgina bir bahona kerak edi. Bu ham kutilganda topilgan, Kompaniyadan chiqqan va o‘zlarini mamertinlar, ya’ni urush xudosi Marsning farzandlari deb atagan kompaniya yollanma askarlarining Messana shahrini bosib olishlari tayyor bahona bo‘lib xizmat qildi. Sirakuza podshosi Agafokl xizmatida bo‘lgan o‘sha mamertinlar Agafokl vafodan keyin Messanani bosib olganlar. Sirakuzani yangi hukmdori Gieron II Messonani qamal qilib mamertinlarga muvaffaqiyatli ravishda qarshi chiqqan. Mamertinlarning bir qismi Karfagendan yordam olmoqchi bo‘lgan.

Boshqa bir qismi esa yordam so‘rab Rim senatiga murojaat qilgan. Senat Ikkilanib qolgan. Nihoyat tashqi bozorni kengaytirishdan manfaatdor bo‘lgan guruh (savdogar va hunarmandlarning) tayziqi bilan Rim xalq majlisi mamertinlarga yordam berish, aslida Karfagenga qarshi urush boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilgan.

Er. av. 264- 241 yillardagi 23 yilga cho‘zilgan birinchi puni urushi SHu tariqa boshlangan. Rim qo‘shinlari dastlab muvaffaqiyat qozongan Sitsiliyaga suzib borib tez vaqt ichida Messanani ishg‘ol etganlar, so‘ngra Akragantni qo‘lga kiritganlar, keyin esa Gieron II bilan ittifoq tuzganlar. Lekin quruqlikda dushmanni engib kelgan Rimliklar dengiz janglarda doim mag‘lub bo‘lganlar, chunki ularning harbiy floti bo‘lmagan. Karfagen kemalari Italiya irg‘oqlariga hujum qilgan, Sitsiliya oroli bilan Italiyaning janubini qurshab olgan. SHundan so‘ngina Rim senati flot tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilgan. Rimliklar 100 ta penter (ya’ni besh palubali kema) va 20 ta uch palubali kema yasab, ular yaxshi jihozlangan: Kemolarning boshiga “Abordaj ko‘priklari” qurilgan, ko‘prik boshlariga ilmoqlar birkitilgan, yonlariga panjara tutilgan. Bu ko‘priklar dushman kemalarining palubalariga tashlanadigan bo‘lgan, unda qilichbozlik qilingan. Rim legionlari esa qilichbozlikda azaldan dong chiqargan. Er. av. 260 yilda Mila buruni va shahri yonida konsul Gay Dauliy qo‘l ostidagi jangda Rimliklar Karfagen floti ustidan birinchi marta muvaffaqiyatli g‘alaba qilganlar.

Bu g‘alabadan ilhomlangan Rimliklar urushni bevosita Karfagen hududida olib borishga qaror qilganlar. Er. av. 256 yilda ikkita konsul qo‘mondonligida Rimliklarning 330 ta kemasi Afrika sohillari tomon yo‘lga chiqqan, ammo dengizda Karfagen flotiga duch kelib katta talofat ko‘rishgan.

Quruqlikdagi jang harakatlarida esa muvaffaqiyat qozonishgan. SHu bilan birgalikda Rim uzoqqa cho‘zilgan urushga tayyorgarligi bo‘lmaganligi bois, bundan tashqari qolgan-qutgan flotni tabiiy ofatga uchraganligi sababli Rimning mag‘lubiyati yanada chuqurlashgan, flotsiz urushni muvaffaqiyatli tugashi mumkin emas edi. SHuning uchun Rimliklar yana flot barpo etishga kirishganlar. Xazina bo‘shab qolganligi bois sarmoyador fuqarolardan qarz

olingan. Yangi qurilgan flot Egata orollari yonidagi jangda Karfagen flotini qattiq mag'lubiyatga uchratgan. So'ngra ikki tomonni ham holdan toyganligi natijasida Karfagenni sulh to'g'risidagi taklifi senat tomonidan ma'qullangan. Er. av. 241 yilgi sulhga muvofiq Karfagen 10 yil davomida Rimga 3200 talant miqdorida tovon to'lashi, asirlarini qaytarishi, o'z qo'shiniga Apennin yarim orolidagi qabilalardan askar yollamasligi, Sitsiliyadagi mulklarini Rimga topshirishi lozim bo'lgan.

Ikkinchi puni urushi (er. av. 218-201 yillar.) urushning boshlanishiga Sangut shahri bilan bog'liq voqealar bahona bo'lgan. Bu shahar Rim bilan itfoqchilik shartnomasini tuzgan edi. Gannibal boshliq Karfagen armiyasi shaharni egallab, aholisini qul qilib sotib yuborgan. Natijada Rim senati Karfagenga elchi yuborib Gannibalni Rimga topshirishni agar rad qilingan taqdirda urush boshlanishi mumkin deb ultimatum quyishgan. Yana Rimlikliklar qisqa urushga tayyorgarlik ko'rishib ikki konsulni Karfagenga qarshi jangga chorlagan. Biri Sitsiliya qirg'oqlaridan chiqib, Afrika qirg'oqlariga tushishi lozim bo'lgan. Ikkinchi konsul Publiy Korneliy Spitsion Gannibal bilan jang qilish uchun Iberiyaga yo'l olgan. Ammo Gannibal Rimliklarni o'z rejalaridan qaytishga majbur etgan. U o'z raqiblarini g'afolatda qoldirib hozirgacha qo'shin o'ta olmaydigan to'siq deb hisoblangan Alp tog'lari orqali shimoldan Italiyaga to'satdan bostirib kirishni mo'ljallagan.

Gannibal qiyinchiliklar bilan bo'lsada Pireneydan o'tib, O'rta dengiz qirg'oqlari bo'ylab yo'l olgan, u Alpni oshib o'tganda atiga 20 ming piyoda 6 ming otliq va bir oz fillari qolgan edi, ularga kelt qabilalari qo'shililishgan. Asosiy jang harakatlari er. av. 216 yili Italiyaning janubida Apuliyadagi Kanna yaqinida aufid daryosi etagida qadimgi dunyoning eng shiddatli janglaridan biri bo'lib o'tgan. Rim qo'shinida 80 ming piyoda, 6 ming otliq askar bo'lgan. Karfagenniki esa gallarning otryadlari bilan qo'shib hisoblaganda 40 mingdan sal ortiqroq piyoda, 14 ming otliq askari bo'lgan.

Bu jangda Gannibal o'z sarkardalik mahoratini namoyon etib, Karfagen qo'shinlarini yarim oy shaklida joylashtirgan. Markaziy qismiga ishonchini unchalik ta'min eta olmaydigan qismlarni, ya'ni iberlar va gallarning otryadlarini qo'ygan. Ammo ikki yon tomonga tanlangan piyoda va otliq askarlar joylashtirilgan. Jangni engil qurollangan yordamchi jangchilar boshlab bergan, keyin otliqlar jangga kirishgan. Rimliklar eich va ixcham qotorlari Karfagenliklarning qoq o'rtasiga hujum qilgan. Gannibal qo'shinining oldinda qavarib turgan qismi orqaga surilib, front liniyasi yarim oy shaklini olib, Rimliklar bu shakl o'rtasida qurshovga tushib qolgan. Natijada 58 ming Rim askarlari qirib tashlangan, 18 ming kishi asir olingan.

Rim liklarning kanna yonidagi mag'lubiyati samniylar, lukanlar va bruttiylarning Rimdan ajralib ketishiga sabab bo'lgan. Shimolda gallarning qo'zg'olonlari kengayib ketgan. Boy

Kapuya va Sirakuza Gannibal tomoniga o'tgan. Makedoniya podshosi Filipp 5 Gannibal bilan ittifoq tuzgan. Karfagenliklarga yordam bergan, 25 ming qo'shini Sitsiliya orliga kelib tushgan.

Rimliklar kanna yonidagi mag'lubiyatdan keyin, 17 yoshdan tortib barcha erkaklarni yoppasiga safarbar qilganlar. Xatto Rim senati qullarni quldorlardan sotib olib, armiya safiga chaqirishga majbur bo'lganlar. Ularga bitta dushmanni ham o'ldirgan kishi ozod bo'ladi debva'da qilingan. Rimliklar Fabiy Maksim taktikasiga amal qilib katta janglarga chap bergan, kichik-kichik to'qnashishlar bilan dushmanning sillasini quritganlar. Va nihoyat urush davomida Rim foydasiga burilish yuz bergan. Er. av. 211 yili Rim liklar Sirakuzani qamal qilib so'ngra egallashgan, uni himoyasida matematik injener Arximed ishtirok etgan, uham o'ldirilgan.

Er. av .204 yildan urush harakatlari karfagen hududiga ko'chgan. Urush Italiya erida o'n besh yil davomida urush olib borilgan (Karfagen bunda biron marta mag'lubiyatga uchramagan) Gannibal Karfagen kengashining qaroriga muvofiq karfagenga qaytib keladi .Er. av 202yilda Afrikada Zam qishlog'i yonida (Karfagendan janubda) so'ngi qat'iy jang bo'lgan. Butun urush yillari mobaynida mag'lubiyatni bilmagan Gannibal bu jangda tormor keltirilgan. SHundan so'ng Karfagen kengashi Rimliklar lageriga borib sulh muzokara boshlashni iltimos qilishgan. Er. av 201 yili Karfagen uchun juda og'ir hisoblangan sulh bitimiga imzo chekilgan. Eng avvalo shahar Afrikaning tashqarisidagi mulklaridan mahrum qilingan. Rim senatining ijozatidan tashqari o'z qo'shnilariga qarshi urush qilishi man qilinda. Karfagen 50 yil mobaynida Rimga 10 ming talant miqdorida tovon to'lashi, 10 ta soqchi kemadan tashqari butun flotini, barcha fillarini Rimga berishi, asirlarni va olgan o'ljalarini qaytarishi, o'z armiyasini tarqatib yuborishi, Afrikadagi Rim armiyasini boqishi Karfagenning eng mo'ta'bar oilalaridan 100 kishini garov qilib berishi lozim bo'lgan.

Rimning g'alaba qozonishi sabablari qo'shinlarining son jihatidan ustunligi, jang qobiliyati va tayyorgarlikning yuksakligi, moddiy resurslarnig ham ustun bo'lganligidir. Rim qo'shinining asosiy qismini tashkil qilgan ko'p sonli Italiya qishloq aholisi o'z eri uchun jang qilgan. Karfagenlik Gannibalning ajoyib g'alabalari esa uning sarkardalik qobili, Italiyaga qo'qqisdan bostirib kirishi va Rim konfederatsiyasining vaqtincha zaiflashib qolishi bilan bog'liqdir. Lekin Gannibalning o'z muvaffaqiyatlarini mustahkamlash uchun zarur vositalar bo'lmagan. Etnik jihatidan xilma-xil bo'lgan yollanma otryadlarning jang qobilyati ham pastroq bo'lgan. Karfagen kengashi Barkiylar xonadonining kuchayib ketishidan qo'rqib, qo'shinni to'ldirishga va moddiy mablag'larga g'oyat muhtoj bo'lgan lashkar boshiga yordam ko'rsatmagan.

Gannibalning Rim –Italiya konfederatsiyasi tez vaqt ichida qulab, tarqalib ketadi degan umidi chippakka chiqadi. Puni urushidan keyin O'rta dengiz davlatlari hayotida Karfagenning

hech qanday ahamiyati qolmagan. Rim esa g'arbiy O'rta dengizda eng qudratli quldorlik davlatiga aylangan.

Uchinchi puni urushini boshlanishiga esa Karfagen bilan Numidiya o'rtasida chiqqan janjal bahona bo'lgan. Numidiya rimning yordamiga ko'z tutib Karfagen hududlarini egallay boshlagan. Natijada qurolli to'qnashuv yuz bergan. Rim senati Karfagenliklar er. av. 201 yilgi sulh shartnomasini shartlarini bajarmadi deb ayb qo'yishgan. Va urush e'lon qilishgan. Karfagenliklar istagan shartlar bilan sulh shartnomasini tuzishga tayyor turganlar. Ular Rimning talabiga ko'ra qurollarini topshirishga rozi bo'lganlar. Ammo Rimliklar Karfagenliklarga shaharni bo'shatib, dengizdan 80 stadiy (15 kilometr) nari joylashishini taklif qilganlar. Lekin Karfagenliklar oxirigacha o'zlarini himoya qilishga qaror qilganlar. Ular shahar devorlarini mustahkamlaganlar, shaharga oziq-ovqat tashiladigan kommunikatsiyani himoya qilish uchun dala armiyasini tashkil etib, qullarni ozod qilganlar. Qurol-yarog' ustaxonalari tinmay qurol yasab turgan. Er.av. 149 yilda Rim legionlarining kemalari Afrika qirg'oqlariga tushgan. Er. av. 147 yilda Spitsion karfagenni qurshab olib qamal qilgan, dala armiyasini tor-mor keltirgan. CHor atrofda qurshalgan shahar ichida kasalliklar va ocharchilik boshlangan. Er. av. 146 yili yozida Karfagenga hujum boshlangan. Ular olti kun davomida har bir uy uchun qahramonona kurash olib borganlar. Va nihoyat salkam 50 ming Karfagenlik taslim bo'lgan, Rimliklar ularni qul qilib sotib yuborgan. SHahar talash uchun legionlar ixtiyoriga qo'yib berilgan va kuydirilgan. SHahar hududi la'natlangan, ya'ni bu joyda turar joy qilish man etilgan. Avval Karfagenga qarashli erlarda Rim viloyati Afrika ta'sis qilingan.

Keyincha Numansiyaga qarshi harakat boshlangan. Bu shahar Duro daryosining boshida, o'tib bo'lmaydigan tog'liklarda joylashgan. YAxshi qurollangan Numansiyaliklar Rimning agressiv hujumlarini qaytaribgina qolmay balki Rim qo'shinlarini qurshab olib, ularni taslim bo'lishga majbur etganlar. Er. av. 133 yilda Ispaniyaga kelgan tajribali sarkarda Publiy Korneliy Spitsion shaharni qamal qilib har qanday tashqi aloqadan mahrum qilgandan keyingina, Rim legionlari Numansiyaning ishg'ol qilganlar. SHundan keyin Rimliklar shaharni vayron etib, ularga qarashli erlarni qo'shinlariga taqsimlab berganlar, aholisini esa qul qilib sotib yuborganlar.

Bir necha bor bosqinchilik urushi olib borish natijasida Rim g'oyat katta davlatga aylangan, uning mulklari Apenin kengliklarini ishg'ol qilibgina qolmay, undan tashqarigi uzoq erlarga ham yoyilgan. Er. av. II asr o'rtalariga kelib Rim bir necha yuz ming kishi yashaydigan katta shaharga aylangan va O'rta dengiz sohillarining eng muhim siyosiy markazi bo'lib qolgan.

Er. av. II asrning birinchi yarmida deyarli tinmay olib borilgan bosqinchilik urushlarining doim g'alaba bilan tugashi, Rimliklarning o'zlari ishg'ol qilgan mamlakatlarni

shipshiydam qilib tashlashi, u mamlakatlardan behisob ko‘p boylik va ko‘p minglarcha harbiy asirlarni olib ketib qulga aylantirilishi Rim va Italiyada quldorlikning rivojlanishiga juda ham qulay sharoit yaratib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Toshkent. 1998 yil.
2. Karimov I. A. O‘zbekiston 21 asr bo‘sag‘asida xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. 1997 yil.
3. Karimov I. A. YUksak ma‘naviyat engilmas kuch. Toshkent. 2010 yil.
4. Blavatskaya V. D. Antichnaya sivilizatsiya. Moskva. 1973 god.
5. Bokshanin A. G. Drevnyaya Gretsiya i drevniy Rim. Moskva. 1952 god.
6. Vallon A. Istoriya rabstvo v antichnom mire. Moskva. 1941 god.
7. Goldenberg V. A. Istoriya drevney Gretsii i Rima. Xarkov. 1955 god.
8. Gordeev V.N. Istoriya drevnego mira. Drevnyaya Gretsiya i drevniy Rim. Leningrad. 1970 god.
9. Kovalev. S. I. Istoriya Rima. Leningrad. 1948 god.
10. Kovalev S. I. SHtaerman. E. M. Ocherki istorii drevnngo Rima. Moskva. 1956 god.
11. Sergienko. M. E. Prostie lyudi drevney Italii. Moskva. 1964 god.
12. Sergienko. M. E. Remeslenniki drevnogo Rima. Leningrad. 1968 god.
13. SHtaerman. E. M. Trofimova. M. K. Rabovladelcheskie otnosheniya v ranney Rimskoy imperii (Italiya). Moskva. 1971 god.
14. SHtaerman. E. M. Drevniy Rim . Problemi ekonomicheskogo razvitiya. Moskva. 1978 god.
15. Dyakonova. I. M. Istoriya drevnogo Rima. Moskva. 1983 god.